

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“MOLIYA-IQTISOD” FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

SHERQULOV SARDOR NEMATILLA O'G'LI

“KORXONALAR MOLIYASINI NAZORAT QILISH USULLARI”

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliya» kafedrası mudiri

« ____ » _____ 2013

Ilmiy rahbar:

O'q. G.Baymuratova

TOSHKENT 2013

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. KORXONALAR MOLIVASINI NAZORAT QILISH USULLARI VA IQTISODIY AHAMIYATI VA ULARNI NAZARIY ASOSLARI	6
1.1. Moliyaviy nazoratni iqtisodiy mohiyati va vazifalari	6
1.2. Korxonalar moliyasini nazorat qilish usullari va shakllari	15
1.3. Korxonalarda audit va auditorlik taftishini o'tkazishning roli va ahamiyati	21
I bob bo'yich xulosalar.....	26
II BOB. KORXONALAR MOLIVAVIY NAZORATINI IQTISODIY HOLATI TAHLILI	28
2.1. O'zbekistonda korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlili	28
2.2. Korxonalar moliyaviy nazoratini iqtisodiy holati tahlili	36
2.3. Korxonalarda audit va auditorlik taftishini o'tkazishni iqtisodiy holati	44
II bob bo'yich xulosalar.....	49
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASHTIRISH SHAROITIDA KORXONALAR MOLIVASINI NAZORAT QILISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	51
III bob bo'yich xulosalar.....	60
Xulosa	62
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	64

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, ularning ishlarini yaxshilash, samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish korxonalarning ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yordam beradi, foydalanilmagan resurslarni aniqlab, korxonalarning kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Qolaversa, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar doirasida iqtisodiy muammolar muhokama etilib va mazkur muammolarning echimlari, ularni bartaraf etish yo'llarini topishda moliyaviy nazoratning o'rni va ahamiyatini yanada chuqurroq asoslab va isbotlab berishning zarurligi, zamonaviy iqtisodiy tizimda barcha turdagi xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, sog'lomligini yanada mustahkamlash, barqarorligini hamda raqobatbardoshligini mustahkamlash, qolaversa, ularning faoliyat yuritish ixtisosligi, yo'nalishi, maqsadidan kelib chiqqan holda tartibli faoliyat olib borishlarini ta'minlashga doir tegishli va haqqoniy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beruvchi moliyaviy nazorat uslubiyotini, amal qilish mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

Amaliyotda moliyaviy nazorat korxona va muassasalarda uyg'un holda olib borilishi uchun zaruriy shart-sharoitlarning, jumladan, huquqiy, tashkilish shart-sharoitlarning yaratilmaganligi, bu sohada qabul qilingan huquqiy va me'yoriy xujjatlardagi kamchiliklarni aniqlash, ularni takomillashtirish, qolaversa, rivojlangan davlatlardagi tajribalarni keng va mukammal o'rganish masalalari ham amalda o'z echimini kutib turgan jiddiy muammolardan hisoblanadi.

Aynan shuning uchun ham mazkur masalani atroflicha o'rganib chiqish, bu sohadagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish vazifalari ushbu mavzuni yoritishga turtki bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi. Korxonalar moliyasini nazorat qilish usullarini yanada faollashtirishning nazariy va amaliy masalalari iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida o'ta ahamiyatli va ilmiy tadqiq uchun dolzarb muammolardan bo'lib qolaveradi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ushbu muammolar bo'yicha o'z ilmiy tadqiqotlarida o'rganganlar, ular qatoriga T.S.Malikov, M.Sh. Sharifxo'jaev, A.V.Vahobov, A.Juraev, N.X.Xaydarov, G.Yahshiboev va shu kabi iqtisodchi olimlarni kiritish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi O'zbekiston Respublikasida korxonalar moliyasini nazorat qilish usullari va ularni samarali tashkil etish yo'nalishlari bo'yicha yuzaga kelgan muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun ishda quyidagi **vazifalar** qo'yildi:

- moliyaviy nazoratni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini ochib berish;
- korxonalar moliyasini nazorat qilish usullari va shakllarini yoritish;
- korxonalarda audit va auditorlik taftishini o'tkazishning roli va ahamiyatini ko'rib o'tish;
- O'zbekistonda korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlilini amalga oshirish;
- korxonalar moliyaviy nazoratini iqtisodiy holati tahlili bilan tanishish;
- korxonalarda audit va auditorlik taftishini o'tkazishni iqtisodiy xolatini o'rganish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida korxonalar moliyasini nazorat qilish usullarini takomillashtirish yo'llari bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti bo'lib O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va statistik ma'lumotlar ishning ob'ekti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida korxonalar moliyasini nazorat qilish usullarini takomillashtirishda duch kelayotgan mavjud muammolarni xal etish va bu borada xulasalar chiqarish ishning predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari turli mulkchilik shaklidagi tarmoqlarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, korxonalar moliyasini nazorat qilish usullarini ko'rib chiqish, korhonalarda moliyaviy nazoratni samarali tashkil qilish natijalari, moliyaviy nazorat samaradorligi nazorat tizimini rivojlantirish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Ishning nazariy manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning halqaro miqiyosda yuqori baholanayotgan va ijobiy natijalarini mamlakatning taroqqiyoti tajribasi tasdiqlanayotgan tanlangan asarlari to'plamiga kiritilgan kitoblaridan, ko'plab maqola va chiqishlarida bozor iqtisodiyotiga o'tish borasidagi vazifalari haqidagi asarlari asos qilib odingan.

Ishning hajmi. Bitiruv malakaviy ishda kirish, uch bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir. Shuningdek ishda rasm va jadvallar mujassamlashgan.

I BOB. KORXONALAR MOLIYASINI NAZORAT QILISH USULLARI VA IQTISODIY AHAMIYATI VA ULARNI NAZARIY ASOSLARI

1.1. Moliyaviy nazoratni iqtisodiy mohiyati va vazifalari

Moliyaviy nazorat bozor munosobatlarning chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiyotning erkinlashtirish tizimining etakchi zarur elementi sifatida shakllanib, rivojlanib boradi. Moliyaviy nazorat mamlakatimizda mavjud milliy boyligimizni va yaratilgan moddiy ne'matlarimizni hamda aholining manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgandir.

Davlatning moliyani boshqarish borasidagi faoliyati ko'p qirrali, turli-tuman moliyaviy munosabatlarni tashkil qilishdan iborat bo'lib, ular moliya nazorati orqali amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati davlat siyosatini amalga oshirish, moliyaviy barqarorlik uchun shart-sharoitlar yaratish uchun mo'ljallanganligi hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

«Moliyaviy nazorat - bu maxsus shakl va uslublarni qo'llash orqali xo'jalik yurituvchi va boshqaruv organlarining moliyaviy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni tekshirishga qaratilgan harakatlar va taftishlar yig'indisidir».

Moliyaviy nazorat davlatning o'z funktsiyalarini amalga oshirish jarayonida, davlat nazoratining asosiy turiga aylanadi.

Moliyaviy nazorat, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlari hamda, pul-moliya-kredit munosabatlar tizimida va mexanizmida ob'ekt zarur kategoriyalarning elementi bo'lib xizmat qiladi.

Boshqa tomondan, moliyaviy nazorat keng xalq ommasining iqtisodiyotini boshqarishdagi sub'ektiv faoliyatining tashkiliy qismi shaklida namoyon bo'ladi.

Davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini muvafaqqiyatli amalga oshirilishi, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari soha va bo'g'inlarida moliyaviy resurslarini

shakllantirishni samaradorli, tejamkorli va to'liq hamda maqsadli yo'naltirilgan holda foydalanish bilan ta'minlanadi.

Respublika iqtisodiyotining holatini, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarining rivojlanish qonuniyatlarni aniqlash, nazorat va tahlil qilish, davlatning iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarish doirasidagi dolzarb faoliyatidir.

Moliyaviy nazorat moliyaning maxsus funktsiyasi bo'lib, uning maqsadi moliyaviy resurslarni boshqarish qonuniyligi va samaradorligi bo'yicha qabul qilingan andozalardan chetga chiqish hollarini aniqlash, bunday chetga chiqiqshlar mavjud bo'lganida esa, ularni tuzatish va oldini olish bo'yicha tegishli choralarni o'z vaqtida qabul qilishdan iborat. Boshqacharoq aytadigan bo'lsak, moliyaviy nazorat iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga ob'ektiv xos bo'lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo'lishidir. Odatda, moliyaviy nazorat quyidagi ikki yo'nalishda qaraladi:

1. Barcha iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qat'iy tartibga solingan faoliyati;

2. Moliyaviy operatsiyalarning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida makro va mikrodarajada moliya hamda pul oqimlarini boshqarishning ajralmas elementi.

Barcha iqtisodiy sub'ektlarning (davlat, korxona va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek maxsu tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi.

Iqtisodiy jixatdan rivojlagan mamlakatlarda moliyaviy nazorat, bir tomondan, o'zaro ta'sircha va ikkinchi tomondan. Mustaqil bo'lgan sohaga bo'linadi:


- Davlat moliyaviy nazorati
- Nodavlat moliyaviy nazorati.

Moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalari nazoratni amalga oshirish metodlarining o'xshashligiga qaramasdan, o'zlarining pirovard maqsadlari bo'yicha

tubdan farq qiladi. Davlat moliyaviy nazonatining bosh maqsadi davlat xazinasiga resurslar tushurishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv harajatlarini minimallashtirish bo'lsa, nodavlat moliyaviy nazoratning bosh maqsadi joylashtirilgan kapitaldagi foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasiga ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirishdan iborat.

1-rasm

Moliyaviy nazoratni tavsiflanishi¹



¹ Vahobov A. V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: 2007. – 322 bet.

Davlat moliyaviy nazoratining oldida turgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Davlat byudjeti va davlatning byudjetdan tashqari fondlarining daromad va xarajat moddalarining o'z vaqtida ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
2. Davlat mablag'larini sarflash va davlat mulkidan foydalanish maqsadlilikini va samaradorlilikini aniqlash;
3. Davlat byudjeti va davlatning byudjetdan tashqari fondlari belgilangan ko'rsatkichlaridan chetlanishlarni aniqlash va tahlil qilish;
4. Davlat mablag'larining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va vakolatli banklardagi harakatining qonuniyligi va o'z vaqtidaligi ustidan nazorat qilish;
5. Soliq, bojxona va boshqa to'lovlarning davlat byudjetining daromadlar qismiga tushishini ta'minlash.
6. Vazirliklar va idoralarning davlat byudjeti va davlatning maqsadli jamg'armalari mablag'laridan foydalanishining samaradorligini baholash.
7. Buxgalteriya xisobi va xisobotining to'g'ri olib borilishi ustidan nazorat.
8. Byudjet va soliq intizomini yaxshilash.
9. Soliq va bojxona imtiyozlari, davlat dotatsiyalari, subvensiyalari va boshqa turdagi yordamlarining to'lovchilarning aloxida kategoriyalar yoki xudular bo'yicha berilishi to'g'risida noqonuniy qarorlar qabul qilinishini bartaraf qilish.
10. Byudjetlararo munosabatlar mexanizmi ustidan nazorat.
11. Byudjet va byudjetlararo munosabatlar sohasida mablag'lar suiste'mol qilinishini aniqlash va ushbu xolatlarni bartaraf etish.
12. Davlat byudjeti loyihasini ekspertiza qilish.
13. Davlat hokimiyati organlariga o'tkaziladigan nazorat natijalari haqida axborot berish.
14. Davlatning xalqaro moliyaviy majburiyatlarining bajarilishni tekshirish.

15. Davlat moliyaviy nazorati sohasida mutaxassisilarni tayyorlash, qayta o'qitish va malkasini oshirish.

Jahon hamjamiyati ko'p yillik tajriba asosida moliyaviy nazoratni tashkil etishning asosiy printsiplarini ishlab chiqqanki, hozirgi paytda ularga rioya qilishga dunyoning har bir tsivilizatsiyalashgan davlati intiladi. Bu printsiplar INTOSAI²ning Lima deklaratsiyasida o'z aksini topgan. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mustaqillik;
- ob'ektivlik;
- kompetentlik (layoqatlilik, qodirlik);
- oshkoralik.

Ana shu asosiy printsiplardan amaliy xarakter kasb etuvchi moliyaviy nazoratning quyidagi boshqa printsiplari kelib chiqishi mumkin:

- natijalilik;
- nazoratchilar tomonidan talab qilinadigan talablarning aniqligi va mantiqiyligi;
- nazorat sub'ektlarining sotib oluvchanmasligi;
- tekshirish va taftish aktlarida keltirilgan ma'lumotlarning asoslanganligi va isbotlanganligi;
- preventivlik (moliyaviy buzilmalar ehtimolining ogohlantiriluvchanligi);
- moliyaviy jinoyatlar bo'yicha shubhalanilayotgan shaxslarning aybsizlik (sudgacha) prezumptsiyasi;
- turli nazorat organlari faoliyatlarining muvofiqlashtiruvchanligi;
- va boshqalar.

Moliyaviy nazoratni tashkil qilish tizimiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi qonunlar qabul qila turib, har bir davlat, odatda, yuqoridagi printsiplarga tayanadi (asoslanadi). Bir vaqtning o'zida, har bir davlatda nazorat harakatlarining

² INTOSAI – dunyoning 178 mamlakati oliy nazorat organlarining Xalqaro tashkiloti. Uning doirasida mintaqaviy tashkilotlar ham amal qiladi. Ulardan biri EVROSAI bo'lib, u oliy nazorat organlarining Evropa tashkilotidir.

o'z reglamenti (tartibi va ketma-ketligi) mavjud bo'lib, bu narsa pirovardida moliyaviy nazoratning natijalariga o'z ta'sirini, albatta, ko'rsatadi.

Moliyaviy nazorat moliyaning maxsus funktsiyasi bo'lib, uning maqsadi moliyaviy resurslarni boshqarish qonuniyligi va samaradorligi bo'yicha qabul qilingan andozalardan chetga chiqish hollarini aniqlash, bunday chetga chiqishlar mavjud bo'lganida esa, ularni tuzatish va oldini olish bo'yicha tegishli choralarni o'z vaqtida qabul qilishdan iborat. U nazoratning boshqa turlaridan farqli o'laroq, ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida mavjud bo'lgan holda, pul jamg'armalari harakatining butun jarayonida kuzatiladi. Shu sababli moliyaviy nazorat har qanday ishlab chiqarishda xo'jalik yuritish mexanizmining ob'ektiv ravishda zaruriy bo'lgan tarkibiy qismidir, deb tasdiqlash mumkin.

Moliyaviy nazorat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va shakllari to'g'risidagi masala iqtisodiy va yuridik adabiyotlarda hamon munozarali bo'lib qolmoqda. Moliyaviy nazoratning eng muvaffaqiyatli ta'rifi E. A. Voznesenskiy³ tomonidan taklif etilgan ta'rif bo'lsa kerak. Moliyaviy nazorat bilan moliyaviy faoliyatning o'zaro bog'liqligiga e'tibor berib, u moliyaviy nazorat chegaralarini kengaytirish kerakligini haqqoniy ravishda ko'rsatadi, u xo'jalik munosabatlarining muayyan majmuiga ham amal qilib, real borliqqa, haqiqatga muvofiq keladi. Bunday xulosa chiqarishga har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy faoliyatini taftish qilish va tekshirish hujjatlari xizmat qiladi. Bizning mamlakatimizda qonunchilikning rivojlanishi ham xususan aynan shundan dalolat beradi⁴.

Moliyaviy nazorat ikki asosiy vazifani bajaradi:

- moliyaviy faoliyat jarayonida qonunchilikka rioya qilish va ta'minlash;
- korxona, muassasa va tashkilotlardagi moliyaviy operatsiyalar qonun asosida olib borilishi bilan birga, undan samarali va maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni ta'min etishdan iborat.

³ Finansoviy kontrol. – M., 1973.

⁴ O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat etish to'g'risida» 1999 yil 24 dekabrda qonuni // O'R OMA, 1999 y., №1,

Shunday qilib, yuqoridagilarga asoslangan holda moliyaviy nazoratga quyidagicha ta'rif berish mumkin, moliyaviy nazorat - bu pul mablag'larini yig'ish, sarflash va undan foydalanish jarayonida olib boriladigan hamda qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan davlat nazoratining bir turidir.

Moliyaviy nazoratni olib borishda albatta qonunga rioya etish talab qilinadi. Buning mazmuni shundan iboratki, respublika hududida faoliyat ko'rsatuvchi barcha davlat organlari (mansabdor shaxslari), korxona, muassasa, tashkilotlar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonunlariga og'ishmay amal qilishlari lozim.

Moliyaviy nazorat quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

birinchidan, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan davlat, mahalliy davlat hokimiyati organlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarining bajarilishini tekshirish;

ikkinchidan, davlat va mahalliy korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ularning ixtiyorida yoki kundalik boshqaruvida bo'lgan pul mablag'laridan to'g'ri va maqsadga muvofiq foydalanilayotganligini tekshirish;

uchinchidan, yuridik shaxslar tomonidan moliyaviy operatsiyalar, hisob-kitob, hisobot va pul mablag'larini saqlash va sarflashning qonunchilik bilan o'rnatilgan talablariga rioya etilishini tekshirish;

to'rtinchidan, ishlab chiqarishning ichki zahiralarini aniqlash;

beshinchidan, moliyaviy intizom buzilishi hollarini bartaraf etish va ogohlantirish.

Bizning mamlakatimizda olib borilayotgan bozor qayta qurishlari tekshiruvlarni tashkil etish va amalga oshirish mazmunini tubdan o'zgartirishni talab qiladi va moliyaviy nazorat oldiga pritsipial jihatdan yangi vazifalarni qo'yadi. Bu vazifalar shu bilan belgilanadiki, «bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish bozorning tarmoqlangan infratuzilmasini tashkil etishni talab qiladi»⁵, ularsiz «bozor mexanizmlari to'liq darajada ishlay olmaydi»⁶. Bunday infratuzilmalar qatoriga bank-

⁵ Karimov I. A. O'zbekiston - o'z yangilanish va taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992. 52-b.

⁶ Karimov I. A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'z modeli - T.: O'zbekiston, 1993. 46-b.

kredit va soliq tizimlari, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi, sug'urta va auditorlik xizmatlari va h.k. kiradi.

Ushbu sharoitlarda moliyaviy nazoratning eng muhim vazifalari moliyaviy munosabatlarning barcha sub'ektlari tomonidan bank, soliq, valyuta qonunchiligi, qimmatli qog'ozlar, sug'urta va auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunlarga rioya etilishi samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Moliyaviy nazoratning nihoyatda muhim vazifalaridan biri, shuningdek, to'lov aylanmasini normallashtirish, noto'lovlar, debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha salbiy oqibatlarni tugatishdir.

Moliyaviy nazorat vazifalarini amalga oshirish natijasida moliyaviy faoliyatda qonuniylik tamoyili tomonlaridan birini ifodalaydigan moliya intizomi mustahkamlanadi. Moliya intizomi deganda, davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish vaqtida belgilangan ko'rsatmalar va tartibga qat'iy rioya etilishi tushuniladi. Moliya intizomi talablari yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlat organlari uchun amal qiladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat davlat manfaatlarini ta'minlaydi va aniq jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquq va manfaatlariga rioya etilishi (masalan, byudjetga to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish to'g'risidagi qonunlarga rioya etilishi, soliqlar to'g'ri olinishi va h.k.ni nazorat etish)ga yordam beradi.

Moliyaviy nazorat yalpi ijtimoiy va milliy daromadni tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish kabi moliyaga xos bo'lgan sifatlarni nazorat etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, moliyaning nazorat funktsiyasi moliyaviy nazoratning asosiy qismi bo'lib, moliyaga bo'lgan ehtiyoj va moliya resurslari majudligi o'rtasida muvozanat bo'lishiga yordam beradi. Bunda moliyaviy nazoratning ishlashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar nazorat faoliyati barcha jabhalarining, xususan, uning chegaralari, amalga oshirish usul va shakllarining aniq tartibga solinishi, nazorat organlari huquqiy maqomi, ularning huquq va majburiyatlarini belgilashdan iboratdir.

Yuridik adabiyotlarda moliyaviy nazoratning boshqa ta'riflari ham berilgan bo'lib, ular moliyaviy nazorat huquqiy mohiyatining yuqorida qayd etilgan o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlab o'tadi⁷. Lekin bu ta'riflar nihoyatda katta bo'lib, shu boisdan ularni tushunib olish qiyin, zeroki ular bir xil ma'noga egadir.

Moliyaviy nazoratning maxsus o'quv adabiyotlarida berilgan yana bir ta'rifi ustida alohida to'xtalib o'tish kerak. Xususan, moliyaviy nazorat deganda, iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va xalq turmush darajasini oshirish maqsadida davlat va tashkilotlar pul mablag'larini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha harakatlarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi ustidan o'rnatiladigan nazorat tushuniladi. Mazkur ta'rif o'zining qisqa, lo'ndaligi bilan boshqa ta'riflardan ajralib turadi, ammo shu bilan birga, u o'z mohiyati bilan unchalik to'g'ri emas. Bu qonuniylik va maqsadga muvofiqlikning o'zaro munosabati to'g'risidagi masalaga tegishlidir.

Moliyaviy nazorat bir qancha elementlardan tarkib topgan bo'lib, ularning majmui murakkab bo'lgan maqsad tizimida ifodalanadi. Moliyaviy nazorat tizimini quyidagi elementlar yoki tuzilmaviy darajalarga ajratish to'g'ridir: davlat nazorati, auditorlik nazorati (uni mustaqil nazorat deb ham atashadi), ichki nazorat (ya'ni xo'jalik sub'ektlari, tashkilotlar va muassasalar darajasida amalga oshiriladigan nazorat).

Davlat mustaqilligiga erishilgandan so'ng, O'zbekiston Respublikasida siyosiy hokimiyatning o'zgarganligi va respublikada Prezidentlik hokimiyatining o'rnatilishi - moliyaviy nazoratni olib boruvchi organlar tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan olib boriladigan nazorat yoki mustaqil xo'jalik yurituvchi tashkilotlar tomonidan olib boriladigan nazorat, ya'ni auditorlik nazorati joriy etildi.

⁷ Gracheva E.Yu., Sokolova E.D. Finansovoe pravo: O'quv qo'llanmasi. - M.: Noviy yurist, 1998.

1.2. Korxonalar moliyasini nazorat qilish usullari va shakllari

Amaldagi qonunchilikda tekshiruvlarning belgilangan barcha turlari ta'rifi berilgan:

- tekshiruv nazorat organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ularning faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarini ijro etishlari ustidan bir marta o'tkaziladigan nazoratdir;

- qisqa muddatli tekshiruv - nazorat organlari tomonidan bir ish kuni davomida o'tkazilib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tekshiruv;

- kompleks tekshiruv - bir bir vaqtda ikki yoki bir necha nazorat organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruv;

- rejadan tashqari tekshiruv - nazorat organlari tomonidan qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yillik (choraklik) rejaga kiritilmagan ravishda o'tkaziladigan tekshiruv (jumladan qisqa muddatli tekshiruv);

- qarshi tekshiruv turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yoki bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning turli bo'linmalarida bo'lib, yagona operatsiya bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni o'zaro solishtirishdan iborat bo'lgan tekshiruvdir.

Barcha turdagi tekshiruvlarni moliyaviy nazoratnig samarali usullari sifatida tan olib, ularning ahamiyatini kamsitmagan holda, shuni qayd etish zarurki, taftish alohida ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy nazoratning mazkur usuli o'zining maqsadi va ob'ektlari nuqtai nazaridan ham, moliya intizomini samarali ta'minlay olishi jihatidan ham eng muhim nazorat bo'lib hisoblanadi. Qonunchilikda taftishning huquqiy maqomi mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi qonunga muvofiq taftish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya va soliq masalalari bo'yicha qonunchilikka rioya etishlari, soliq organlari, davlat statistika organlari va banklarga taqdim etiladigan hisob yuritish va hisobotlari to'g'riligini nazorat etish

maqsadida ularning buxgalteriya, moliyaviy va boshqa hujjatlarini tekshirishdan iboratdir.

Taftishning asosiy vazifalari tekshiruv ob'ektiga qarab farqlanadi.

Kengash faoliyatining maqsadi, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishni tartibga solish va muvofiqlashtirish, ularning ish-faoliyatiga nazorat organlari tomonidan asossiz ravishda aralashishga yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari qilib belgilangan:

- 1) nazorat organlarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ish-faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;
- 2) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ish-faoliyati bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruvlarning umumiy sonini qisqartirish;
- 3) tekshiruvlar, shuningdek nazorat organlarining faoliyatini qaytarishga yo'l qo'yuvchi kompleks tekshiruvlarning muvofiqlashtiruvchi rejalarini ishlab chiqish;
- 4) tekshiruvlar o'tkazish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi rejalariga rioya etilgan holda nazorat organlarining faoliyati ustidan nazorat o'rnatish va Kengash bilan kelishilmay turib, rejadan tashqari, qarshi tekshiruv va nazorat tartibida tekshiruvlar o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik;
- 5) tekshiruvlarni qisqartirish va takomillashtirish maqsadida ularni tashkil etish tizimini tartibga solish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish.⁸

Kengash hududiy komissiyalarining asosiy funktsiyalariga:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish bo'yicha hududiy muvofiqlashtiruvchi reja-grafiklar ishlab chiqish;
- muvofiqlashtiruvchi reja-grafiklar bajarilishiga rioya etilishi ustidan monitoring o'rnatish kabi vazifalar kiradi.

⁸ Vahobov A. V., Malikov T.S., Moliya: umumnazariy masalalar (o'quv qo'llanma) / TMI. – Toshkent, 2007. – 322 bet.

Kengash o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi uchun hamda o'z maqomiga muvofiq ravishda quyidagi huquqlarga ega:

- respublika barcha vazirliklari va idoralaridan yaqinlashib kelayotgan davr uchun mo'ljallangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshiruv rejalarini so'rash va olish;

- tekshiruvlarni muvofiqlashtirish bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibga rioya etilishini ta'minlash talab qilingan ko'rsatmalarni, Kengash Raisi imzosi qo'yilgan holda, nazorat organlariga jo'natish;

- tekshiruvlarni muvofiqlashtirish to'g'risidagi qonunchilik-ni buzish yoki Kengash qarorlarini buzishda aybdor bo'lgan nazorat organlari rahbarlari va mansabdor shaxslarga ma'muriy choralar belgilanganligi to'g'risidagi taqdimnomalarni, Kengash Raisi imzosi qo'yilgan holda, jo'natish;

- nazorat organlarining rejadan tashqari tekshiruvlar o'tkazish to'g'risidagi qarorlarini, agar ularni o'tkazish uchun etarlicha asoslar bo'lmasa, bekor qilish.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini taftish qilish vaqtida mablag'lar va moddiy boyliklar saqlanishi hamda to'g'ri sarflanishi, buxgalteriya hisobi va hisobotining to'g'riligi, moliya intizomiga rioya etilishi tekshiriladi.

Aylanma kapitalni rejalashtirish va undan foydalanishni tashkil qilish uchun unga nisbatan bo'lgan ehtiyojni aniqlash me-todlari va rejalashtirish tizimini ishlab chiqmoq lozim. Moddiy resurslar va ular zaxiralarining harakatini boshqarish tizimini avtomatlashtirish xususida o'ylamoq, aylanma kapital va uni shakllantirish manbalari bilan to'g'ri manyovr qilish, material-larning sarflanishi va ularning saqlanishi ustidan nazoratni ta'minlash kerak.⁹

Rejadan tashqari tekshiruvlar (jumladan qisqa muddatli tekshiruvlar) nazorat organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi qonuni 12-moddasiga muvofiq ravishda quyidagi hollarda o'tkaziladi:

⁹ Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi / TMI. – Toshkent, 2009. – 296 bet.

- O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlaridan kelib chiqqan holda tekshiruvlarni o'tkazish zarurati tug'ilganida. Bunda, agar hukumat qarorida tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektning nomi aniq belgilangan bo'lsa, Respublika Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash yoki uning viloyat komissiyasidan rozilik olish talab qilinmaydi;

- nazorat organiga xo'jalik yurituvchi sub'ektning qonunlarni yoki qonuchilikning boshqa hujjatlarini buzganligi faktlari to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushgan holda. Korxona, tashkilot, muassasalar va fuqarolardan kelib tushgan, tartibbuzarlik faktlari aniq asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan holda ko'rsatilgan ma'lumotlar qo'shimcha ma'lumotlar bo'lib xizmat qilishi mumkin;

- favqulodda hodisalar yuzaga kelishining oldini olishda;
- sanitariya-epidemiologiya sharoitlari yomonlashganida hamda qo'shni davlatlardan yuqumli kasalliklar olib kelinishi va tarqalish ehtimoli yuzaga kelgan hollarda.

Respublika Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash va uning viloyatlardagi komissiyalari ishchi organlari taqdim etilgan buyurtmalarga asosan tegishli nazorat organlari bilan birgalikda mazkur tekshiruvlarning asoslanganligini o'rganib chiqadi, muvofiq ravishda Kengash va uning viloyat komissiyalariga tegishli o'zgartirishlar kiritadi, ular esa, rejadan tashqari tekshiruvni o'tkazish yoki o'tkazmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

Rejadan tashqari tekshiruvni o'tkazish yoki o'tkazmaslik to'g'risidagi qaror, ariza kelib tushgan kundan boshlab ikki haftalik muddatdan kechiktirilmagan holda qabul qilinadi va qaror yoki xat shaklida rasmiylashtirilib, muvofiq holda Kengash raisi (yoki uning topshirig'i bo'yicha o'rinbosari) yoki viloyat komissiyasi raisi tomonidan imzolanadi hamda nazorat etuvchi organga jo'natiladi.


Har bir nazorat turining asosiy vazifalari qonunan belgilab qo'yilishi mumkin bo'lsa ham birining ikkinchisiga o'zaro singishi muqarrar yuz beradi. Shu bois

nazoratning barcha turlari harakatini muvofiqlashtirish zarurati aniq-ravshan bo'lib koladi.

Byudjetning daromad va harajat qismlarini tekshirish vazifasi faqat byudjet-moliya nazoratiga xos bo'lib, u moliyaviy nazoratning mohiyatini g'oyat yorqin aks ettiradi. Korxonalar, kompaniyalar moliya-xo'jalik (korxonalik yoki tijorat) faoliyati va moliyaviy hisobotlarining to'g'riligini tekshirish, yuqori rahbariyatning yo'l-yo'riqlarini tekshirish yoki mutanosiblikni audit qilish, mavzu bo'yicha tekshirish yoki operatsiya audita singari vazifalar moliyaviy nazoratning barcha uch turining vazifasi hisoblanib, moliyaviy nazorat umumiy bo'limiga xosdir.

2-rasm

Nodavlat moliyaviy nazoratini turkumlanishi¹⁰



Korxonalar va tashkilotlarning mustaqil auditorlar tomonidan tasdiqlangan moliyaviy hisobotlari, bozor iqtisodiyoti sohasidagi davlatga o'z moliyaviy siyosatini ruyobga chiqarishchda yordam beradigan zaruriy element hisoblanadi. Auditorlik firmalarining moliyaviy hisobotlar ishonchliligini tasdiqlashi maslahatchilik faoliyati nodavlat sektorida moliyaviy nazoratni chuqurlashtiradi va kengaytiradi. Chunonchi, korxonalar, tashkilotlarning mustaqil auditorlar tomonidan tasdiqlangan moliyaviy

¹⁰ Vahobov A. V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: 2007. – 322 bet.

Hisobotlari kredit berish, investitsiyalar joylashtirish, fond birjalarida qimmatbaho qog'ozlar listingi va shu singari operatsiyalar uchun axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Bunday qaraganda, auditorlik firmalarining maslahatchilik faoliyati moliyaviy nazorat vazifasiga kirmaydi. Lekin Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi kabi organlar ham o'z nazorat ob'ektlari va nodavlat soha korxonalari uchun maslahat xizmati ko'rsatadilar, biroq bu ishlar buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish, byudjet bilan o'z vaqtida va to'liq hisob-kitob qilinishi uchun bajarilayotgani tufayli ular ham shu organlarning vazifalariga aylanib qolmoqda. To'g'ri, ular bu xizmatlarni bepul ko'rsatsalar, auditorlik firmalari esa ana shunday xizmatlari uchun haq talab qiladi. Moliyaviy hisobotning to'g'riligini tekshirish vazifasi istisnosiz pulli hisoblanib, ayni paytda moliyaviy nazorat turkumiga kiritiladi.

Shunday qilib, e'tirof etish mumkinki, auditorlik firmalarining moliyaviy hisobotlar to'g'riligini tasdiqlash va maslahat berish borasidagi faoliyati asta-sekin moliyaviy nazorat turkumiga kirib bormoqda, buning ustiga auditorlar bu xizmatlarni nodavlat sektori korxonalari, kompaniyalari ustidan ham davlat tomonidan, ham moliyaviy axborotdan foydalanuvchilarning nazoratini kuchaytirish maqsadlarida ko'rsatadilar.

Korxona, tashkilot moliya-xo'jalik (korxonalik, tijorat) faoliyatining ayrim bo'limlari (qism, uchastkalari) holatini tekshirish mavzuli tekshirish deb ataladi. Masalan, moddiy boyliklar (asosiy vositalar yoki nomoddiy aktivlar)ning saqlanishi va ulardan foydalanishni tekshirish, moliyaviy natijalar aniqlanishining to'g'riligini tekshirish va boshqalar. Xorij amaliyotida mavzuli tekshirish «operatsiya audita» atamasi bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, boshqaruv tizimidagi sub'ektlarning maqomi va roli, sub'ektlarning o'zi, nazorat amallarini bajarish vaqti, manbalar, tekshirish bilan qamrab olish hajmi va to'laligi moliyaviy nazorat usulini tasniflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

1.3. Korxonalarda audit va auditorlik taftishini o'tkazishning roli va ahamiyati

Korxonalarining iqtisodiy faoliyat yuritishlarida moliyaviy va buxgalteriya hisob-kitoblarini to'g'ri amalga oshirishlarida auditorlik firmalari ham muhim rol o'ynaydi. Auditorlik firmalari bozor infratuzilmasining eng muhim elementlaridan biri bo'lib, mulkdorlar va davlatning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida mustaqil moliyaviy nazoratni amalga oshiradi.

O'zbekistonda audit O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni asosida amalga oshiriladi. Audit – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni mustaqil ekspertiza va moliyaviy hisobotini tahlil etuvchi tashkilotdir. Buni shunga vakil qilingan shaxslar – auditorlar (auditorlik firmalari) bajaradi.

Auditning asosiy maqsadi – moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining to'g'riligini va ularning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va boshqa me'yoriy hujjatlariga nechog'lik mosligini aniqlashdan, bularning to'la-tukisligi, aniq-ravshanligi, buxgalteriya hisobi yoki boshqa moliyaviy hisob yuritishga qo'llanilayotgan talablarga nechog'lik monandligini aniqlashdan iboratdir. Audit tarkibiga yana konsalting, ya'ni mijoz bilan shartnoma tuzib, xizmatlar ko'rsatish ham kiradi.

Auditorlik faoliyati xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyati ustidan mahsus vakolat olgan davlat idoralarining nazorati o'rnini bosmaydi.

Auditning asosiy «harakatlanuvchi shaxsi» auditor va auditorlik firmasidir. Auditor belgilangan tartibda auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini olgan hamda auditorlik kasbi ro'yxatiga kiritilgan mutaxassisdir. Auditorlik firmasi – yuridik va jismoniy shaxs tomonidan tuzilib, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgach, ustaviga ko'ra auditorlik xizmati ko'rsatish bilan shug'ullanadigan tashkilot.

Auditorlik firmalari kichik korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllarida ochilishi mumkin, ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno.

Quyidagilarga auditorlik tekshiruvini o'tkazish taqiqlanadi:

- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari bilan yaqin karindosh bo'lgan shaxsga;

- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektda shaxsiy-mulkiy manfaatlari bo'lgan shaxsga;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektning rahbarlariga, muassasalariga yoki mulkdorlariga;

- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt yoki uning filial-lari xodimiga;

- davlat xokimiyati va boshqaruvi idoralarining mansabdor shaxslariga;

- kreditorlar, investorlar va boshqa manfaatdor shaxslarga.

Auditorlar va auditorlik firmalari davlat ro'yxatidan o'tib, litsenziya olganlaridan keyin faoliyat boshlaydi.

Auditorlar va auditorlik firmalari qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasining Adliya Vazirligida Davlat ro'yxatidan o'tadi.

Auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun litsenziya davlat ro'yxatidan o'tgandan keyin beriladi. Ularni berish tartibi-ni O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Auditorlar (auditorlik firmasi) quyidagi huquqlarga ega:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobotini audit qilish va tuzilgan shartnomaga binoan konsalting xizmati ko'rsatish;

- O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risi-da»gi qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga binoan tekshiruvning shakl va usullarini mustaqil belgilash;

- tekshirilayotgan ob'ektda ham, uchinchi shaxslar qo'lida ham bo'lgan, tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkiy holati va faoliyatiga daxldor hujjatlar bilan tanishish imko-niyatiga ega bo'lish;

- o'tkazilayotgan tekshirish yoki ko'rsatilayotgan auditorlik xizmati munosabati bilan tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbarlaridan va boshqa xodimlaridan, shuningdek uchinchi shaxslardan og'zaki yoki yozma tarzda zarur izohlar olish;

- litsenziyadan mahrum etish haqida qaror qabul qilinganida sudga ariza bilan murojaat qilish va hokazo.

Auditor (auditorlar firmasi)ning burchlari:

- auditor tekshiruvini sifatli, mukammal o'tkazish, tekshiruvlar o'tkazish bilan aloqador boshqa auditorlik xizmati ko'rsatish;

- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyatiga tekshiruv vaqtida aniqlangan qonunchilikning buzilish hollari va buxgalteriya hisoboti yuritish hamda moliyaviy hisobotni tuzishga qo'yilgan talablarning buzilish dalillari haqida ma'lumot berish;

- o'z vazifalarini bajarish chog'ida ma'lumotlarni sir saqlash. Mijozga zarar etkazadigan ma'lumotlar faqat sudning talabi bilan oshkor qilinishi mumkin;

- uzrli sabablar bo'lmasa, o'z faoliyatini to'xtatmaslik, uni oxiriga etkazish va xulosa chiqarish;

- mabodo ishi va xulosalarida holis va ob'ektiv bo'lishning imkoni bo'lmay qolsa, o'z faoliyatini to'xtatish.

Auditorni mijoz bilan shartnoma tuzgan auditorlik firmasi xo'jalik yurituvchi sub'ekt mulkdorlari bilan kelishilgan holda tayinlaydi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt mulkdorlari qarori bilan yoki auditorni tayinlagan yuridik shaxsning qaroriga ko'ra auditor chaqirib olinishi mumkin, auditor bu haqda barvaqt yozma tarzda, uning xizmatidan voz kechish sabablarini ko'rsatib xabardor qilinadi.

Tekshiruv vaqtida yoki buyurtmaga ko'ra, boshqa ishlar qilinayotganida xizmatdan voz kechilsa, xo'jalik yurituvchi mulkdor auditor xizmatiga haq to'lashi shart.

Surishtiruv organi, proquror, tergovchi va sud topshirig'i bilan auditorlik tekshiruvi o'tkazilsa, xarajatlar tekshirilayotgan xo'jalik sub'ekti zimmasiga tushadi, uning qo'lida etarli mablag' bo'lmasa, tekshiruvni tayinlagan organ zimmasiga tushadi.

Xo'jalik yuritish sub'ektining rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari auditorning talabi bilan quyidagilarni bajarishi shart:

- moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga daxldor hujjatlarni berishi;
- og'zaki yoki yozma tarzda izohlar berishi;
- tekshirilayotgan ob'ektning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini sifatli ekspertiza qilish uchun boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratishi.


«Auditorlik faoliyati haqida»gi qonun va boshqa qonun hujjatlarining qoidalarini auditorlik tekshiruvi vaqtida buzganlik uchun auditor va auditorlik firmasi javobgar hisoblanadi va quyidagi javobgarlikka tortiladi:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan mulkiy va ma'muriy javobgarlikka;
- litsenziya huquqini to'xtatib qo'yish yoki auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan litsenziyadan mahrum etishgacha (litsenziya bergan organ qaroriga muvofiq) bo'lgan intizomiy jazolar beriladi.

Bozor munosabatlari sharoitlarida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt va jamiyat, nafaqat yo'l qo'yilgan kamchilik va tartibbuzarliklarni qayd etish, balki ularni o'z vaqtida to'g'rilashga ulgurishdan manfaatdordir. Bu funktsiyani joriy nazorat qisqa vaqt oralig'ida ishlab chiqarish, xo'jalik va moliya operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida bajaradi. Birlamchi hujjatlar ma'lumotlari, operativ va buxgalteriya hisobi, inventarizatsiya va kuzatuvga asoslangan holda, joriy nazorat zarur bo'lgan hollarda tez o'zgaruvchan xo'jalik vaziyatlarini tartibga solish, yo'qotishlar va zararlarning oldini olishga imkon beradi.

Nazoratdan eng ko'p samara uning barcha shakllarining o'zaro harakatida erishilishi mumkin. Ayniqsa, bu byudjet mablag'larini o'g'irlashga qarshi kurashda zarur bo'lib, u sodir bo'layotgan o'g'irliklarning oldini olish, bunday holatlarni va ularning sabablarini aniqlash, kelgusida ularga yo'l qo'yilmasligi uchun o'zaro bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar tizimini o'z ichiga qamrab olishi kerak.

Nodavlat moliyaviy nazorat¹¹



¹¹ Vahobov A. V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: 2007. – 322 bet.

Bundan tashqari moliyaviy nazoratni majburiy va ixtiyoriy nazoratlarga bo'lish mumkin. Majburiy nazorat quyidagi hollarda olib boriladi:

a) qonunchilikda ko'rsatilgan hollarda, masalan, byudjet ijrosi ustidan vakillik organlarining olib boradigan nazorati;

b) vakolatli davlat organlarining qaroriga binoan, masalan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarining qaroriga binoan olib boriladigan nazorat.

Ixtiyoriy nazorat xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mustaqil qabul qilgan qarorlari asosida amalga oshiriladi.

Ichki xo'jalik nazorati tashkilotlarning o'zida tashkil etilgan bo'limlar (xizmatlar) tomonidan olib boriladi. Davlat va mahalliy ichki xo'jalik nazorati, masalan, buxgalteriya bo'limlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

I bob bo'yicha xulosalar

Moliyaviy nazorat iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga ob'ektiv xos bo'lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo'lishidir. Odatda, moliyaviy nazorat quyidagi ikki yo'nalishda qaraladi:

1. Barcha iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qat'iy tartibga solingan faoliyati;

2. Moliyaviy operatsiyalarning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida makro va mikrodarajada moliya hamda pul oqimlarini boshqarishning ajralmas elementi.

Iqtisodiy jixatdan rivojlagan mamlakatlarda moliyaviy nazorat, bir tomondan, o'zaro ta'sircha va ikkinchi tomondan. Mustaqil bo'lgan sohaga bo'linadi:

- Davlat moliyaviy nazorati
- Nodavlat moliyaviy nazorati.

Moliyaviy nazorat ikki asosiy vazifani bajaradi:

- moliyaviy faoliyat jarayonida qonunchilikka rioya qilish va ta'minlash;

- korxona, muassasa va tashkilotlardagi moliyaviy operatsiyalar qonun asosida olib borilishi bilan birga, undan samarali va maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni ta'min etishdan iborat.

Korxonalar moliyaviy nazoratida korxonalar moliyaviy faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar kapitalning asosiy sifat ko'rsatkichlarini o'zgartirishga qodir bo'lgan omillar hisoblanadi. Ularning korxonalar moliyaviy nazoratiga ta'sir etish mexanizmini chuqur o'rganish va salbiy ta'siriga barham berish choralarini ishlab chiqish va ularni tahlilini ko'rib chiqish asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

II BOB. KORXONALAR MOLIYAVIY NAZORATINI IQTISODIY HOLATI TAHLILI

2.1. O'zbekistonda korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlili

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti yaratish maqsadida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

Bozor munosabatlari sohasida har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Ammo ko'pgina korxona va tashkilotlar iqtisodiy mustaqillik hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish xuquqini qo'lga kiritganlaridan so'ng xo'jalik yuritishning yangi sharoitlariga tayyor emasliklari ayon bo'lib qoldi.

Tahliliy ishlarni muvaffaqiyatli, samarali o'tkazilishi uni har tomonlama o'ylab, sinchiklab tashkil qilinishiga bog'liq. Uni o'tkazilishi ilmiy xarakterga asoslangan va reja asosida amalga oshirilishi lozim. Tahlil ishlari olib borilayotganda, u bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. Ushbu bosqichlarni bosib o'tish jarayonida har bir bosqichning mazmuni oldindan aniqlanishi kerak va ularning bajarilishi ma'lum tomonlarga asoslangan bo'lishi lozim. Asoslanishi lozim bo'lgan tomonlar esa quyidagilardan iborat:

1. Korxona faoliyatini tahlil qilish - boshqarishda qaror qabul qiladigan har bir rahbar, menejerning xizmat burchidir. Shunday qilib bundan chiqadigan zarur tamoyil bu tahlil ishlarini bajaruvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash;
2. Ishlab chiqarish tarmoqlarida tahlil ishlarini tashkil qilishda eng zarur tamoyillardan biri uning tejamliligi, ya'ni kam xarajat qilib yuqori samaraga erishish;
3. Tahlil ishlarini tashkil qilishda yana bir tamoyil uni o'tkazishni nazorat qilib borish.

Korxona iqtisodiy-moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim korxonaning boshqaruv va moliyaviy hisobot shakllarini erkin o'qishni, uning moddalarini tushunishni, shuningdek, xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishi kerak.

Korxonalarda iqtisodiy tahlilni tashkil etish ixtiyoriylik va amaliyotdagi tajriba hamda talabdan kelib chiqqan holda tahlil ishlari tashkil etiladi. Tahlilni tashkil etishda o'rganiladigan mavzularning qo'lam va ahamiyatiga qarab iqtisodchilar bilan bir qatorda korxonaning barcha mutaxassisleri hamda oddiy ishchisigacha ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

Korxonalarda tsex yoki brigada ma'lumotlari bo'yicha iqtisodiy tahlilni esa shu bo'lim boshliqlari tashkil etishlari kerak bo'ladi.

Viloyat, tuman yoki tarmoqlar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirib iqtisodiy tahlilni o'tkazishga istiqbolni belgilash va statistik tashkilotlar yoki yuqori tashkilotlar tarkibida tashkil etilgan iqtisodiy tahlil kengashi ish yuritadilar.

Boshqaruvning hamma bo'g'inlarida umumiy ishlab chiqarish sohasini samaradorligini oshirishda analitik ishni tashkil etish va iqtisodiy tahlilning roli oshib bormoqda. Ushbu holatdan kelib chiqib iqtisodiy tahlil tashqi va ichki tahlil turlariga bo'linadi.

Korxona va birlashmalarni ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining tashqi tahlilini quyidagilar olib boradilar:

- ◆ Boshqaruvning yuqori organlari;
- ◆ Moliya organlari;
- ◆ Bank tashkilotlari;
- ◆ Soliq organlari va hakoza.

Yuqori boshqaruv organlari o'z nazorati ostidagi korxona va uyushmalarning ishlab chiqarish faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib turishadi. Buning uchun esa

reja va hisobot ma'lumotlari, tekshiruv natijalari va boshqa ma'lumotlar kerak bo'ladi.

Yuqoridagi bildirilgan fikrlardan foydalanib, quyida ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalarida iqtisodiy tahlilni tashkil etishni sxemasini keltirib o'tish mumkin bo'ladi.

Moliya organlari iqtisodiy tahlil jarayonida korxona va birlashmalarning foydalilik rejasini bajarilishiga, davlat byudjeti oldidagi majburiyatlariga, korxonaning moddiy va pul resurslarini ratsional taqsimlanishiga, o'z – o'zini moliyalashga va harid quvvatiga diqqatini qaratadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki doimiy ravishda kredit olgan korxona va birlashmalarning ish faoliyatini, hamda asosiy hajm va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilib turishadi, korxonalarda bank kreditlarining ishlatilishini, mehnat xaqi fondini, tovar – moddiy qiymatliklar va ularni saqlanish holatini hamda to'lov intizomi holatini tahlil qilib turishadi.

Iqtisodiy tahlil ishlarini korxona va birlashmalar olib borishi bilan bir qatorda boshqa tashkilotlar ham olib borishi mumkin: Bularga:

- ◆ Rejalashtirish tashkilotlari;
- ◆ Ilmiy tadqiqot va loyihalashtirish institutlari;
- ◆ Jamoat tashkilotlari;
- ◆ Matbuot organlari kabilar kiradi.

Ichki tahlilni esa korxona va birlashmalarni ishchi hodimlari olib boradilar va ularning turli tarkibiy bulinmalari o'zlariga tegishli funktsiyalarni belgilab oladilar. Iqtisodiy tahlil ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Korxonani hamma faoliyati sferalarida mavjud bo'lgan rezervlarni izlab topish, taqsimlangan majburiyatlarni aniq bajarilishi va uni amalga oshirishda ma'suliyatni xis etish lozim bo'ladi.

Korxonalarni to'g'ri va oqilona boshqarish uchun turli-tuman ma'lumotlar tizimidan foydalanish zarurki, ular orqali to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishi mumkin. Malumotlar deyilganda iqtisodiy hodisalar, voqealar va xo'jalik

jarayonlarini tegishli manbalar orqali aks etirish, ularni qayta hisoblash va o'rganish, hamda qiziquvchi tashkilotlarga uzatish tushuniladi.

Tahlil uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- ◆ Iqtisodiy ma'lumotlar;
- ◆ Huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar;
- ◆ Ilmiy- texnikaviy ma'lumotlar;
- ◆ Tabiy- ekologik ma'lumotlar;
- ◆ Boshqa ma'lumotlar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyaviy va boshqaruv tahlil qilishdan olinadigan natija uni axborot va metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Tahlilni axborot bilan ta'minlashda bosh rolini buxgalteriya hisobi va hisoboti egallaydi, sababi bu manbalarda xo'jalik faoliyati va uning natijalari o'z aksini topgan. Birlamchi va jamlangan hisob registridagi ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'la-to'kis tahlil qilish rejani bajarilishiga, xo'jalik faoliyatini yaxshilashga qaratiladi.

Ayniqsa yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlarini mazmunan tekshirish tahlil ishlarini samarali o'tishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda ma'lumotlarni tahlil qilishdan oldin ularning to'g'riligi tekshirib olinadi. Ma'lumotlarning to'riligiga ishonch hosil qilish uchun esa ayrim ko'rsatkichlarni ma'lum bir hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslab ularning bir-biriga mosligi o'rganiladi. Agar bir xil ko'rsatkichlar turli manbalarda bir xil tartibda aks ettirilgan bo'lsa, u holda ushbu ma'lumotlar qo'g'ri deb tan olinishi mumkin bo'ladi.

Moliyaviy hisobotning turli shakllaridagi ma'lumotlarni bir - biriga mosligini o'rganish quyidagi jadvalda keltirilgan (1 -jadval).

Moliyaviy hisobot ma'lumotlarini bir-biriga mosligini tekshirish¹²

Ko'rsatkichlar Nomi	Shakl raqami	Birlamchi		Ikkilamchi			Mosli gi
		Satri	Summa , ming so'm	Shakl raqami	Satri	Summa, ming so'm	
A	1	2	3	4	5	6	7
Asosiy vositalar:							
Boshlang'ich qiymat.	1	010	71000	3	130	71000	Mos
Eskirish qiymati.	1	011	44500	3	130	44500	Mos
Ustav kapital	1	320	80000	5	080	80000	Mos
Taqsimlanmagan foyda	1	350	45000	5	080	45000	Mos

Manaba: Talaba tomonidan turli adabiyotlari asosida aks ettirildi.

Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, ularning ishlarini yaxshilash, samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish korxonalarning ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yoodam beradi, foydalanilmagan resurslarni aniqlab; korxonalarning kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri - bu boshqaruv tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Bu masalani ijobiy hal etishda korxonalarning xo'jalik faoliyati va moliyaviy holatini tahlil qilish katta rol o'ynaydi. Chunki korxonalar faoliyatini tahlil qilish boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Korxonalarning moliyaviy holati bu:

- kompleks ravishdagi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi;

¹² Talaba tomonidan shakllantirildi

- korxonalar faoliyatidagi butun ishlab chiqarish va xo'jalik omillarining harakati, ularning o'zaro aloqadorlik natijasidir;
- korxonalarning mo''tadil ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanish ifodasidir;
- korxonalarning boshqa xo'jalik sub'ektlari, organlari va tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni haqiqiy aks ettirishidir.

Ko'rinib turibdiki, moliyaviy tahlil ko'p qirrali murakkab va muhim bo'lganligi sababli u bir qancha talablarga asoslangan bo'lishi lozim. Yuqorida ko'rilgan talablarga asoslanib, moliyaviy tahlil korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilishda quyidagi vazifalarni bajarishga yo'naltirilishi kerak:

1. Korxonalarning moliyaviy darajasini baholash;
2. Moliyaviy holatning o'zgarishini aniqlash;
3. Korxonaning to'lov qobiliyatiga baho berish;
4. Moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish;
5. Korxonaning moliyaviy barqarorligi va moliyaviy mustahkamligiga baho berish;
6. Korxona balansi likvidligiga baho berish va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
7. Aylanma mablag'lar aylanishiga baho berish;
8. Korxonalarda qo'lga kiritilgan moliyaviy holat darajasini ifodalab, bu borada hali foydalanilmagan imkoniyatlarni, mavjud zahiralarini ko'rsatib berish.
9. Korxonalarda hali foydalanilmagan imkoniyatlarni safarbar etish maqsadida tavsiyalar, takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini ko'rsatib berish.

Quyidagi jadvalda korxona mulkining hajmi va tarkibi keltirilgan. Uni tuzishda balans ma'lumotlaridan foydalanib, sof, ishlatishga layoqatli boyliklar holati o'rganiladi. Keltirilgan ma'lumotlar balansning jami summasiga teng bo'ladi.

2-jadval

“Bahmal-qurilish” aksionerlik jamiyatining buxgalteriya balansini aktiv moddalarining tahlili¹³

Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)		
	Summa, ming so'm	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %	Summa-dagi, ming so'm	Salmog'i, %	Yil boshiga nisbatan o'sishi, %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6/2*100
1. Uzoq muddatli aktivlar	186790	25,99	203491	22,80	+16701	-3,19	+8,94
2. Joriy aktivlar	531756	74,01	689066	77,20	+157310	+3,19	+29,58
Shu jumladan:							
A) Tovar-moddiy zahiralar	470833	65,52	531450	59,54	+60617	-5,98	+12,87
B) Pul mablag'lari va qisqa muddatli qo'yilmalar	7657	1,08	9491	1,07	+1834	-0,01	+23,95
V) Debitorlar	53266	7,41	148125	16,59	+94859	+9,18	+178,08
Balans aktivining JAMI	718546	100,0	892557	100,0	+174011	-	+24,22

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan “Bahmal-qurilish” aksionerlik jamiyatida o'rganilayotgan joriy davrda jami aktivlar summasi 174011 ming so'mga yoki 24,22 % ga ko'paygan. Aktivlarning ko'payishini ijobiy baholagan holda, ma'lumotlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, aktivlarning ko'payishi asosan joriy aktivlarning 157310 ming so'mga ortganligi hisobiga bo'lgan. Korxonaning uzoq muddatli aktivlari ham 16701 ming so'mga ortganligini ijobiy baholamoq lozim. Joriy aktivlarning tarkibini o'rganadigan bo'lsak, joriy yil oxirida yil boshiga nisbatan tovar-moddiy zahiralar 12,87 % ga ko'paygan, ya'ni bu 60617 ming so'mni tashkil etadi. Aksionerlik jamiyatining debitorlik qarzlari ham yil

¹³ “Bahmal-qurilish” AJ ning yillik ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

oxiriga kelib 178,08 % ga yoki 94859 ming so'mga ko'payganligini salbiy baholamoq kerak. Chunki, debitorlik qarzining bunday tartibda ortib borishi korxonaning aylanma mablag'larini aylanishini sekinlashtiradi, qo'lov qobiliyatini yomonlashuviga olib keladi. Korxona aktivlari tarkibida asosiy salmoqni tovar-moddiy zahiralar egallamoqda, ya'ni u 60 % ga yaqin aktivlar summasini tashkil etmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxonada me'yordan ortiqcha tovar-moddiy zahirasi yaratilganligini hamda uning natijasida korxona joriy aktivlarini aylanishi sekinlashishini ko'rsatmoqda. Aktsionerlik jamiyati ma'muriyati mavjud aktivlardan unumli foydalanish choralarini ko'rishi lozim deb hisoblaymiz.

Bozor iqtisodiy qonuniyatlari va talabidan kelib chiqqan holda korxonada qarz kam bo'lgani ma'qul. 3-jadvalda korxona mablag'larining manbalari ko'rsatilgan.

3-jadval

“Bahmal-qurilish” aktsionerlik jamiyatining buxgalteriya balansini passiv moddalarining tahlili¹⁴

Mol-mulkni tashkil topish manbaining tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)		
	Summa, ming so'm	Salm og'i, %	Summa, ming so'm	Salm og'i, %	Summa- dagi, ming so'm	Salmoqd agi, %	Yil boshiga nisbatan o'sishi, %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6\2*100
1. O'z mablag'larining manbalari	460499	64,09	729410	81,72	+268911	+17,63	+58,39
2. Majburiyatlar Shu jumladan:	258047	35,91	163147	18,28	-94900	-17,63	-36,98
a) uzoq muddatli majburiyatlar	-	-	-	-	-	-	-
b) joriy majburiyatlar	258047	35,91	163147	18,28	-94900	-17,63	-36,98
Balans passivining JAMI:	718546	100,0	892557	100,0	+174011	-	+24,22

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan “Bahmal-qurilish” aktsionerlik jamiyatida joriy yilning boshiga nisbatan yil oxirida jami passivlari summasi 174011 ming so'mga yoki 24,22 % ga ortgan. Korxonada mol-mulkni tashkil etuvchi manbalarning bunday tartibda ko'payishini ijobiy holat sifatida

¹⁴ “Bahmal-qurilish” AJ ning yillik ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

baholamoqlozim. Ammo, ushbu manbalar qaysi manbbalar hisobiga ko'payganligiga alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ya'ni manbalarining ko'payishi o'z mablag'lari manbalari hisobigami yoki qarz manbalari hisobiga ekanligini aniqlash lozim. Aksionerlik jamiyatining ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korxonada korxonada joriy yil oxirida o'z mablag'lari manbalari yil boshiga nisbatan 268911 ming so'mga yoki 58,39 % ga o'sgan. Bunday natijalarni korxona uchun ijobiy deb baholamoq lozim. Chunki, o'z mablag'larining manbalarini ko'payishi korxonaning moliyaviy mustaqilligini ortishiga, to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga hamda korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonada joriy yil oxiriga majburiyatlarning summasi 94900 ming so'mga yoki 36,98 % ga pasaygan. Bu esa majburiyatlarning umumiy passivlarda tutgan salmog'ini 17,63 % ga kamaytirgan. Bundan ko'rinadiki korxonaning to'lov likvidligi ancha ko'tarilgan. Balans passividagi moddalarga e'tibor qiladigan bo'lsak, asosiy salmoqni, ya'ni 81,72 foizni o'z mablag'lari manbalari tashkil etmoqda. Bu korxonaning mustahkam moliyaviy barqaror ekanligidan dalolat beradi. Mazkur korxonada hisobot davrida joriy majburiyatlari, ya'ni kreditorlik qarzlari bir qadar kamayganligini ijobiy holat sifatida baholamoq lozim. Bitiruv malakaviy ishimizni mazkur paragrafida korxonalar faoliyatini bugungi kundagi holatini ko'rib o'tdik. Keyingi masalani korxonalar moliyaviy menejmenti va bugungi kunda amaldagi tartibiga bag'ishlaymiz.

2.2 Korxonalar moliyaviy nazoratini iqtisodiy holati tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning moliyaviy holatini tahlil etishda moliyaviy tahlilning korxona moliyaviy holatini umumiy baholash bosqichidan keyingi eng asosiy bosqich bo'lib – korxonaning moliyaviy mustahkamligi tahlili bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda korxonaning aylanma mablag'larini qoplashga korxonaning o'z mablag'larini etarli yoki etishmasligi ham o'rganiladi.

Balans ma'lumotlariga qarab korxonani aylanma mablag'lari qanday manbalar hisobiga tashkil etilganligi o'rganiladi. Bunday tahlilning zarurligi shundaki, korxonalarni moliyaviy mustaqilligi, barqarorligi, kredit olishga layyohatligini aniqlashda o'zlik manbalar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkich muhim ahamiyatga egadir. Quyidagi jadvalda zahira va xarajatlarni qoplashga o'zlik manbalarning etarliligini aniqlash uslubi keltirilgan.

4-jadval

Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli manbalar bilan ta'minlanganlikning tahlili¹⁵

(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	Farqi (+,-)
1	2	3	4
1. O'z mablag'larining manbalari	460499	729410	+268911
2. Uzoq muddatli aktivlar	186790	203491	+16701
3. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'z manbalari (1-2)	273709	525919	+252210
4. Uzoq muddatli kredit va qarzlar	-	-	-
5. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli o'zlik va uzoq muddatli qarz manbalari (3+4)	273709	525919	+252210
6. Qisqa muddatli kredit va qarzlar	258047	163147	-94900
7. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli jami manbalar (5+6)	531756	689066	+157310
8. Tovar-moddiy zahiralarining jami	470833	531450	+60617
9. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z manbalarining etarliligi (+) g'ki etishmasligi (-), (3-8)	-197124	-5531	-191593
10. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga o'z va uzoq muddatli qarz manbalarining etarliligi (+) yoki etishmasligi (-), (5-8)	-197124	-5531	-191593
11. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga jami manbalarning etarliligi (+) yoki etishmasligi (-) (7-8)	+60923	+157616	+96693

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan "Bahmal-qurilish" aksionerlik jamiyatida hisobot yili boshiga nisbatan yil oxirida 268911

¹⁵ "Bahmal-qurilish" AJ ning yillik ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

ming so'mga o'z mablag'lari manbalari ko'paygan. Aktsionerlik jamiyatining uzoq muddatli aktivlari esa yil boshiga nisbatan 16701 ming so'mga ortgan. Buning natijasida korxonada joriy yil oxiriga kelib tovar-moddiy zahiralarini qoplashga tegishli o'zlik manbalari hajmi 252210 ming so'mga ko'paygan. O'zlik manbalarning ko'payishini ijobiy holat sifatida baholamoq lozim. Aktsionerlik jamiyatida joriy yil boshida va oxirida uzoq muddatli majburiyatlari bo'lmagan. qisqa muddatli majburiyatlari esa yil boshida 258047 ming so'm bo'lgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 163147 ming so'mni tashkil etgan, ya'ni qisqa muddatli majburiyatlari 94900 ming so'mga kamaygan. Bunday holat esa korxonaning tovar-moddiy zahiralarini qoplashga tegishli manbalarini qisqarishiga ta'sir etgan. Mazkur aktsionerlik jamiyatida tovar-moddiy zahiralar hajmi birmuncha yuqori bo'lganligi uchun joriy yil boshida ham, yil oxirida ham tovar-moddiy zahiralarini qoplashga o'z manbalari hamda o'z va uzoq muddatli qarz manbalari 191593 ming so'mga etarli bo'lmagan. Faqatgina qisqa muddatli majburiyatlar hisobigagina tovar-moddiy zahiralarini qoplashga jami manbalar 96693 ming so'mga ortiqcha (etarli) bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, korxonaning moliyaviy barqarorligi joriy yilning boshida ham, yil oxirida ham nobarqaror holatda bo'lgan. Bunday natijalar bozor iqtisodiyoti sharoitida unchalik yaxshi natija deb hisoblanilmaydi. Shu sababli ham, korxona ma'muriyati moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda korxonaning moliyaviy barqarorligi yil boshiga nisbatan yil oxirida biroz bo'lsada yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Korxonalar moliyaviy holatini umumiy baholashdan keyingi moliyaviy tahlil bosqichi bo'lib, korxonalarning moliyaviy mustahkamligi (barqarorligi) tahlili hisoblanadi. Moliyaviy mustahkamlikni tahlil etishdan oldin moliyaviy mustahkamlikning mazmuni to'g'risida kelishib olishimiz lozim.

Demak, moliyaviy mustahkamlik korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy

barqarorligiga korxonalarining butun xo'jalik, ishlab chiqarish faoliyatining hamma yo'nalishlari ta'sir ko'rsatadi. Unga ham ichki, ham tashqi omillar, shart-sharoitlar ta'sir etadi.

Ichki omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- Korxonada ishlab chiqarishning barqarorligi;
- Ishlab chiqarishni tashkil qilish;
- Ishlab chiqarishni boshqarish;
- Korxona ustav jamg'armasining hajmi;
- Korxona xarajatlari va daromadlarining nisbati;
- o'zlik mablag'larining manbalari va korxona majburiyatlarining nisbati;
- korxona aylanma mablag'lari tarkibi.

Korxonalar o'z faoliyati davomida boshqa xo'jalik sub'ektlari bilan iqtisodiy aloqalarda bo'lar ekan, korxonalar moliyaviy barqarorligiga tashqi omillar ham ta'sir etadi.. Bunday omillar tarkibiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- korxonaning tovarlar bozoridagi holati;
- korxonaning eksport va import aloqalari;
- korxonaning boshqa korxonalar bilan ishga doir aloqalarda aktivligi;
- bank organlari, debitor va kreditor korxonalar bilan aloqalar;
- respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat, soliq, narx-navo va moliya, bank siyosati, texnika, texnologiya siyosati.

Demak, moliyaviy mustahkamlik bir qancha omillar, shart-sharoitlar ta'sirining yakuni bo'lib, u o'z navbatida korxona faoliyatining ko'p tomonlariga ta'sirini ko'rsatar ekan. Moliyaviy mustahkamlik tahlilini boshlamasdan oldin yana bir muammoni hal qilib olsak. Bu moliyaviy mustahkamlik atamasining mazmuni haqidagi muammodir. Ushbu muammoli savolni echish maqsadida quyida iqtisodchi olimlarning fikrlari bilan tanishib chiqsak.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash va uning ahvolini baholashga yordam beradi.

5-jadval

Moliyaviy koeffitsientlar tahlili¹⁶

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	O'zgarishi (+,-)
1	2	3	4=3-2
1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	0,641	0,817	+0,176
2. To'lov qobiliyati koeffitsienti	2,061	4,223	+2,162
3. Qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat koeffitsienti	0,560	0,223	-0,337
4. Zahira va xarajatlarni o'z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsienti	0,978	1,372	+0,394
5. Mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsienti	0,594	0,721	+0,127

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, "Bahmal-qurilish" aksionerlik jamiyatining moliyaviy ahvoriga to'g'ri baho berish uchun buxgalteriya balansiga asoslangan holda moliyaviy koeffitsientlardan foydalanamiz. Shunga ko'ra, korxonaning moliyaviy mustaqillik koeffitsienti yil boshiga nisbatan 0,176 koeffitsientga yoki 17,6 % ga o'sgan. To'lov qobiliyati koeffitsienti yil boshiga nisbatan 2,162 koeffitsientga o'sgan. Mazkur koeffitsientlarning bunday tartibda o'zgarishi korxonaning moliyaviy holatini joriy yil boshiga nisbatan yil oxirida birmuncha yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari korxonada majburiyatlarning o'z mablag'lariga nisbatan ulushini pasayganligini ham ijobiy baholamoq lozim, ya'ni bu korxonaning majburiyatlarini qisqarganligidan dalolatdir. Mablag'lar harakatchanligi esa yil boshiga nisbatan yil oxirida 0,127 koeffitsientga o'sgan. Bu esa korxonada aylanma mablag'larga bo'lgan talabni yanada to'laroq

¹⁶ "Bahmal-qurilish" AJ ning yillik ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

qondirib borish imkonini beradi. Umuman olganda korxona ma'lumotlari asosida uning moliyaviy koeffitsientlari o'rganilganda, ushbu koeffitsientlarning o'zgarishi ijobiy bo'lgan.

6-jadval

“Bahmal-qurilish» aksionerlik jamiyatining to'lov qobiliyatini tahlili¹⁷

To'lash uchun mablag'lar	Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm	To'lov qarzlari	Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm
1	3	4	6
1. Pul mablag'lari, ya'ni kassadagi va hisob raqamidagi pul mablag'lari	9374	1. Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar (qarzlari)	90387
2. Valyuta mablag'lari	117	2. Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari	400
3. Qisqa muddatli investitsiyalar, boshqa pul mablag'lari va joriy aktivlar	12009	3. soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar	-
4. Tayg'r mahsulot	167464	4. Mulkiy va shaxsiy sug'urta bo'yicha qarzlari	
5. Debitorlik qarzlari	148125	5. Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlari	6721
		7. Mexnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari	5007
		8. qisqa muddatli kredit va qarzlari	35593
		9. Boshqa joriy majburiyatlar	25039
Jami to'lash uchun mablag'lar	337089	Jami to'lov qarzlari	163147
Qarz to'lov majbu-riyatlarining ko'pligi	-	To'lov qarzlariidan to'lov mablag'larining ko'pligi (ortiqchaliligi)	173942
Balans	337089	Balans	337089

¹⁷ “Bahmal-qurilish” AJ ning yillik ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan "Bahmal-qurilish" aktsionerlik jamiyati joriy davrda to'lov qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ya'ni, korxonaning jami to'lov mablag'lari 337089 ming so'm bo'lgani holda, jami to'lov qarzlari 163147 ming so'mni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki korxonada to'lov qarzlarga nisbatan to'lov mablag'lari 173942 ming so'mga ko'p bo'lgan. Bu esa korxonaning mutloq to'lov qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari to'lov mablag'lari tarkibiga e'tibor qiladigan bo'lsak, uning asosini tayyor mayosulotlar (167464 ming so'm) hamda debitorlik qarzlari (148125 ming so'm) tashkil qilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxona ayni vaqtda tez to'lov qobiliyatiga ega emas ekan. To'lov qarzlarning asosini esa mol etkazib beruvchilardan bo'lgan qarzlarni hamda boshqa shu kabi majburiyatlar tashkil qilmoqda. Bu esa ushbu qarzlarni qisqa muddatlarda to'lab beish lozimligini bildiradi. Korxona ma'muriyati to'lov qobiliyatini yaxshilash uchun mavjud tayyor mahsulotlarini sotish choralarini ko'rishi hamda debitorlik qarzlarni undirib olish choralarini ko'rishi lozim bo'ladi. Aks holda, korxonaning to'lov qobiliyati bundanda yomonlashishi mumkin.

Korxonaning to'lov layoqatini baholashda odatda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- Mutloq to'lov layoqati koeffitsienti;
- Oraliq to'lov layoqati koeffitsienti;
- Joriy to'lov layoqati koeffitsienti.

Mutloq to'lov layoqati ko'rsatkichi korxonaning joriy aktivlarida harakatchan aktivlarning to'lov majburiyatlarini qoplashiga etarliligi yoki etishmasliligini; oraliq to'lov layoqati ko'rsatkichi joriy aktivlarda harakatchan va tez pulga aylanadigan aktivlarni to'lov majburiyatlarini qoplashga etarliligi yoki etishmasliligini; joriy to'lov layoqati ko'rsatkichi esa joriy aktivlarda barcha aylanma aktivlarning to'lov majburiyatlarini to'lashga etarliligi yoki etishmasliligini tasiflaydi.

Korxonaning to'lov layoqatiga baho berishda muqobillik variantlarini ham qo'llash lozim bo'ladi. Yangi ochilgan va hali faoliyat boshlamagan korxonalarga kredit berish yuzasidan qaror qabul qilishda, uning biznes reja ko'rsatkichlari va u bo'yicha aniqlangan to'lovga qodirlikning ehtimolligiga, korxonaga maqsadli, markazlashgan kredit resurslarining tushirilishiga, texnik loyihalar asosida kredit ajratilishi va hakoza larga ahamiyat berilishi muhimdir.

7-jadval

Korxonaning to'lov layoqati ko'rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi

Ko'rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Izoh
1	2	3
1. Mutloq to'lov layoqati ko'effitsienti	$K_M = \frac{PM + QQ}{QMM}$	PM - pul mablag'lari QQ - qimmatli qog'ozlar QMM - qisqa muddatli to'lov majburiyatlari
2. Oraliq to'lov layoqati ko'effitsienti	$K_O = \frac{PM + QQ + DM}{QMM}$	DM - debitorlik majburiyatlari
3. Joriy to'lov layoqati ko'effitsienti	$K_J = \frac{PM + QQ + DM + TMZ}{QMM}$	TMZ - tovar-moddiy zahiralar

Demak, korxona yuqori to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan. Bu korxona faoliyati uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Korxonaning mavjud pul mablag'lari doim to'lov majburiyatlarini qaytarishga tayyor bo'lgan manba bo'lganligi uchun hamda qimmatli qog'ozlar ham shu maqsadga ishlatilishi mumkinligini hisobga olinib, to'lov qobiliyatini belgilovchi ko'effitsient hisoblaniladi. Shuningdek, turli aylanma mablag'larning pul shakllariga o'tish muddati har xilligini e'tiborga olinganda, tayyor mahsulot zahiralarini tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlar va yarim fabrikatlarning pulga aylantirish tezligini o'rganish zurrur. Bundan tashqari to'lov qobiliyatining

o'zgarishida debitorlik qarzlarining pulga aylanish tezligi, bankdagi to'lov hujjatlarini o'z vaqtida rasmiylashtirilishi va ularning tez harakat qilishiga bog'liqdir. Agarda debitor mablag'larni qarz majburiyatlarini uzishga yo'naltirilsa, oraliq to'lov qarzlarini qoplashlik koeffitsienti ko'rsatkichi hisoblanadi.

Demak, korxona qisqa muddatli to'lov majburiyatlarini qoplashga o'zining barcha aylanma mablag'larini, ya'ni, zahiralar, pul mablag'lari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlarini jalb etishi lozim bo'ladi.

Kelgusi yilda korxonaning to'lov qobiliyatida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bilish uchun mahsulotlar sotishdan keladigan tushum hajmini tahlil qilish lozim. Jami tushum hisobiga sarflangan xarajatlar qoplanadi, majburiy to'lovlar bajariladi va ehtiyot rivojlantirish jamg'armalari yaratiladi. Sof tushum bevosita korxona oborotida qatnashadi, bunga asosiy vosita eskirishi va sof foyda kiradi.

2.3 Korxonalarda audit va auditorlik taftishini o'tkazishni iqtisodiy xolati

Auditor ichki nazorat tizimining ishonchliligini va tekshirish o'tkazishda unga tayanish mumkinligi haqida asosli qaror qabul qila olishi uchun bu tizimni o'rganadi. Nazorat tizimining ishonchliligi, uning hisob yuritishda muayyan shaxslar qasddan qilishi mumkin bo'lgan, shuningdek, tasodifiy yo'l qo'yiladigan xatolarning oldini olish va aniqlash layoqatidan iborat. Agar auditorning fikricha, ichki nazorat tizimi ishonchli bo'lsa, bunda u tekshiruv ob'ektlaridan birortasi bo'yicha schyotlar yoki muomalalarni tekshirishni to'liq yoki qisman ichki nazorat tizimining ishlashini tekshirishch natijasi bilan almashtirishi mumkin. Agar, ichki nazorat tizimi ishonchli va sezilarli darajada izdan chiqmasdan ishlayotganligini aniqlansa, u bunday tizimdagi buxgalterlik ma'lumotlarida ham katta xatolar yo'q deb taxmin qilishga haqlidir. Agar, mabodo ichki

nazorat tizimi samarasiz bo'lsa, auditor uning kamchiliklaridan kelib chiqadigan xatarli vaziyatlarni bartaraf qilish uchun testlar soni va uni tanlash hajmini ko'paytirishi lozim. Ichki nazorat tizimini ko'rib chiqishda, auditor avvalo, korxona ma'muriyatining ichki nazoratga munosabatini, ya'ni korxona rahbarining fikrlash xususiyatlarini, ularning rahbarlik qilish uslubini, aniq moliyaviy hisobotga munosabatini o'rganadi. Auditor korxona atrofidagi ishchanlik muhitini ham inkor qilmasligi lozim. O'rganishning ushbu bosqichida auditor mijoz bilan tuzilgan shartnomadan kelib chiqadigan tahlikali vaziyatlarni baholashda to'plagan ma'lumotlaridan foydalanadi. Lekin, u agar butun auditning tahlikali vaziyatlarini qulay deb baholagan bo'lsa, shuningdek, korxonaning ichki nazorat tizimini ham ishonchli deb bilmasligi lozim. Rejalashtirish paytida ichki nazorat tizimi faoliyatining barcha tomonlarini batafsil tahlil qilib chiqish lozim. Auditor olingan ma'lumotlarni yagona tizimga keltirish uchun qisqacha hisobot tayyorlab, unda quyidagilarni bayon qiladi: korxonaning faoliyat qilish sohasi va printsiplari, rahbariyatning ishonchli hisob va nazorat tizimini yaratishga oid majburiyatlari, rahbariyatning korxona faoliyatini nazorat qila olish layoqati.

Faoliyat sohasini bayon qilishda auditor asosiy diqqat-e'tiborini ichki nazoratning alohida uchastkalariga qaratadi. Turli tarmoklardagi ayrim muomalalar va schyotlarga nisbatan nazoratning kuchaytirilishi boshqalari uchun samarasiz bo'lishi mutlaqo ayon. Masalan, savdoda tovar zahiralarini nazorat qilish, amalda etarli darajada samarali bo'lib, ayni paytda sanoatda materiallarni nazorat qilish kassani nazorat qilishdan samarasiz bo'lishi mumkin


To'g'ri yo'lga qo'yilgan ichki nazorat tizimi xatolar vujudga kelishini bartaraf etib, natijada, noto'g'ri, befoyda qarorlar kabul qilish hamda zararlar vujudga kelishini imkon qadar kamaytiradi.

Auditorlik tekshiruv dasturi moliyaviy hisobotdagi axborotlarning ishonchliligini tasdiklashga qaratilgan amallar ro'yxatidan iborat. Har bir

auditorlik amalining turi, o'tkazish vaqti va miqyosi aniklanib, u moliyaviy xisobotning bir yoki bir necha ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liq. Auditorlik amallarining ettita asosiy turi mavjud qayta sanash, kuzatish, tasdiqlash, og'zaki so'rov, hujjatlarni tekshirish, nusxa ko'chirish va taxlil qilish amallari. Auditorlik amallarini o'tkazish vaqti turlicha bo'lishi mumkin: balans tuzgunga qadar yoki tuzilganidan so'ng. Bajariladigan amallar miqyosi ishlar hajmiga bog'liq bo'lib, ushbu amallarni safarbar qilish chog'ida bajarilishi mumkin.

4-rasm

Ichki nazorat elementlari¹⁸



Ichki nazorat tizimini baholashning navbatdagi maqsadi - bu uni takomillashtirish bo'yicha konstruktiv takliflar ishlab chiqishdir. Auditor ichki nazorat tizimini ishlab chiqishda faol ishtirok etib, o'z takliflarini mijozga taqdim etiladigan maxsus xatda bayon qiladi.

Ichki nazorat tizimini o'rganish (bayon qilish). Auditor ichki nazorat

¹⁸ Talaba tomonidan tayyorlandi


tizimining ishonchliligini va tekshirish o'tkazishda unga tayanish mumkinligi haqida asosli qaror qabul qila olishi uchun bu tizimni o'rganadi.

Agar har kunlik ish ichki nazorat ostida bo'lsa, daromadlar ko'payadi. Kundalik ish ishonchli bo'lsa daromadni yo'qotish xavf-xatari ham pasayadi. Ichki nazoratning tuzilishi turli xil bo'lishi, korxona faoliyati, uning hajmi, EHM bilan jihozlanganligi, rahbariyatning shaxsan nazorat qila olish imkoniyatlari va ko'plab boshqa omillarga bog'liq.

Auditorning ichki nazorat tizimini o'rganish va baholash jarayonini o'tkazish hamda hujjatlashtirishini namunaviy shakllari quyidagi rasmda ifodalanadi.

5-rasm

Auditorning ichki nazorat tizimini o'rganish va baholash jarayonini o'tkazish hamda hujjatlashtirishning namunaviy shakllari¹⁹



Ichki nazorat tizimini baholashning asosiy maqsadi - auditni rejalashtirish, shuningdek auditorlik amallarining turlarini, o'tkazish vaqtini va hajmini

¹⁹ Talaba tomonidan tayyorlandi

aniqlash uchun puxta zamin yaratib, ularni auditorlik tekshiruvining dasturida aks ettirishdan iborat.

Faraz qilaylik, auditor tomonidan dastlabki auditorlik tekshiruvi dasturi tayyorlangan va u oldinda turgan ishlarning borishi to'g'risida ma'lum tasavvurga ega. Xatda ichki nazorat tizimining muammolari bilan bog'liq faktlar bayon qilinib, auditor bular haqida mijoz-korxona boshqaruvini xabardor qilishi lozim. Chunki, bu muammolar ichki nazorat tizimining tarkibi va faoliyat ko'rsatishida sezilarli kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi va korxonaning moliyaviy axborotlarini ro'yxatga olish, qayta ishlash va moliyaviy hisobotda umumlashtirish layoqatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunning 7-moddasiga muvofiq buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot, shuningdek ichki nazorat tizimini tashkil etish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektning rahbari javobgardir.

Auditor mijoz uchun samarali ichki nazorat tizimini yaratish uchun korxonaning tashkiliy tuzilmasini, nazorat amallarini va hujjatlashtirishni ishlab chiqishi talab etiladi. Auditorlik firmasi ishlab chiqadigan nazorat tizimi bu konsultatsion xizmatlar bo'lib, ularni firma o'zining auditorlik funktsiyalariga kiritmaydi.

Nazorat muxiti deganda xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyatining xabardorligi, ichki nazorat tizimini o'rnatish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy ishlari tushuniladi. Nazorat muhitining ahvoli rahbarlarning ish uslubi, ularning dunyoqarashi, nazorat va xodimlar ustidan nazorat maqsadini tushuntirish tizimining samaradorligiga bog'liq.

Ichki nazorat tizimi samarali bo'lishi uchun funktsional mas'uliyatlar yoki xizmat vazifalarining etarli darajada taqsimlanishi juda muhimdir. Bu nazorat amallari samaradorligining muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa shuki, korxonalar moliyaviy nazoratini doimo takomillashuvini taqozo etadi. Bu esa bitiruv malakaviy ishimizning keyingi bobining asosiy mazmunidan iborat bo'ladi.

II bob bo'yicha hulosalar

Korxonalar moliyasini nazorat qilish usullari va ularni samarali tashkil etish jarayonini tahlilini olib borishda korxonalar moliyaviy nazoratini iqtisodiy holati, audit va auditorlik taftishini o'tkazishni iqtisodiy holati tahlili ko'rib chiqildi. Umumiy holda quyidagi xulosalarga kelindi.

Korxonalarda nazorat jarayonida asoslanishi lozim bo'lgan tomonlar esa quyidagilardan iborat:

1. Korxona faoliyatini tahlil qilish - boshqarishda qaror qabul qiladigan har bir rahbar, menejerning xizmat burchidir. Shunday qilib bundan chiqadigan zarur tamoyil bu tahlil ishlarini bajaruvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash;
2. Ishlab chiqarish tarmoqlarida tahlil ishlarini tashkil qilishda eng zarur tamoyillardan biri uning tejamliligi, ya'ni kam xarajat qilib yuqori samaraga erishish;
3. Tahlil ishlarini tashkil qilishda yana bir tamoyil uni o'tkazishni nazorat qilib borish.

Korxonalarni to'g'ri va oqilona boshqarish uchun turli-tuman ma'lumotlar tizimidan foydalanish zarurki, ular orqali to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishi mumkin. Malumotlar deyilganda iqtisodiy hodisalar, voqealar va xo'jalik jarayonlarini tegishli manbalar orqali aks etirish, ularni qayta hisoblash va o'rganish, hamda qiziquvchi tashkilotlarga uzatish tushuniladi.

Korxonalarning moliyaviy holati bu:

- kompleks ravishdagi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi;
- korxonalar faoliyatidagi butun ishlab chiqarish va xo'jalik omillarining harakati, ularning o'zaro aloqadorlik natijasidir;
- korxonalarning mo''tadil ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan

samarali foydalanish ifodasidir;

- korxonalarning boshqa xo'jalik sub'ektlari, organlari va tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni haqiqiy aks ettirishidir.

Moliyaviy mustahkamlik korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga korxonalarning butun xo'jalik, ishlab chiqarish faoliyatining hamma yo'nalishlari ta'sir ko'rsatadi. Unga ham ichki, ham tashqi omillar, shart-sharoitlar ta'sir etadi. Korxonalar o'z faoliyati davomida boshqa xo'jalik sub'ektlari bilan iqtisodiy aloqalarda bo'lar ekan, korxonalar moliyaviy barqarorligiga tashqi omillar ham ta'sir etadi.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASHTIRISH SHAROITIDA KORXONALAR MOLIVASINI NAZORAT QILISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Moliyaviy nazorat bo'yicha muhim vazifa va funksiyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zimmasiga ham yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida» 1993 yil 6 maydagi qonunining 12-moddasiga muvofiq u vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va boshqa davlat va xo'jalik boshqaruv organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. U davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organlar vakolati va funksiyalari tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha hukumat komissiyasi hamda Respublika pul-kredit siyosati komissiyasi tashkil etilgan bo'lib, ularga davlat moliyaviy nazorati sohasida katta vakolatlar berilgan.

Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha hukumat komissiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'zining mintaqaviy komissiyalariga ega. Mazkur Komissiya tomonidan uning vakolati doirasida qabul qilingan qarorlar vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, tijorat banklari, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hamda ularning birlashmalari (xo'jalik uyushmalari), mansabdor shaxslar va fuqarolar ijro etishi uchun majburiy hisoblanadi.

Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha hukumat komissiyasi to'g'risidagi Nizomga muvofiq quyidagilar uning asosiy vazifalari deb belgilangan:

- iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarida hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va tijorat banklari tomonidan to'lov intizomini mustahkamlash va hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish, soliqlar va majburiy to'lovlarni to'liq to'lash bo'yicha amaldagi

qonunchilik me'yorlariga qat'iy rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- korxonalarining debitorlik qarzlari ahvolini tahlil etish, muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning byudjetga to'lovlar bo'yicha boqimandalarini qisqartirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda tegishli soliqlar va majburiy to'lovlarning to'liq undirib olinishini ta'minlash;

- korxonalar va tashkilotlar aylanma mablag'larining ajratib olinishi, shu jumladan tayyor mahsulot zahiralarga va tugallanmagan qurilishga ajratilishi sabablari va yo'nalishlarini aniqlash hamda ularni qisqartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Komissiyaga keng vakolatlar berilgan bo'lib, u xususan, quyidagi huquqlarga ega:

- vazirliklar, qo'mitalar, idoralar, tijorat banklari, soliq organlari, xo'jalik uyushmalari, korxonalar va birlashmalar, davlat boshqaruv organlari rahbarlarining debitorlik va kreditorlik qarzlari, soliq va to'lov intizomining ahvoli to'g'risidagi masalalar bo'yicha hisobotlarini eshitib borish;

- boqimandalarni to'lash, penya hisoblanishini tugatish bo'yicha muddatlarni kechiktirish yoki uzaytirish, byudjetga va nobyudjet fondlarga soliqlar va to'lovlar bo'yicha penyalarni hisobdan chiqarish;

- belgilangan tartibda moliya, soliq va bojxona organlari faoliyatini tekshirishni tashkil etish, Komissiya zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan axborot, ma'lumotlarni vazirliklar, qo'mitalar, idoralar, uyushmalar, davlat boshqaruvi mahalliy organlaridan olish;

- bankrotlik va korxonalarni sanatsiyalash masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasiga korxonalarni sanatsiyalash yoki muntazam ravishda debitorlik va kreditorlik qarzlarga yo'l qo'yuvchi korxonalar va tashkilotlarni bankrot deb e'lon qilish uchun materiallarni xo'jalik sudiga berish to'g'risida qarorlar qabul qilish yuzasidan takliflar berish;

- soliq solish tizimi va xalq xo'jaligida hisob-kitoblarni yaxshilash uchun yo'naltirilgan respublika qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish va h.k.

Ichki firmaviy moliyaviy nazorat korxona, muassasa, firma, korporatsiyalar o'zining iqtisodiy xizmatlari, ya'ni buxgalteriya, moliya bo'limi, moliyaviy menejment xizmatlari va boshqalar tomonidan o'z korxonasi, filiallari va shu'ba tuzilmalarining moliyaviy faoliyati ustidan nazorat amalga oshiriladi. Ichki nazorat xizmatlari doimiy ravishda pul mablag'larini (shaxsiy, qarziy, jalb etilgan) ishlatilishining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi kuzatadi, rejalashtirgan moliyaviy natijalar bilan haqiqiy moliyaviy natijalar qiyoslab, tahlil qiladi, investitsion loyihalarning natijalariga moliyaviy baho beradi, korxonaning moliyaviy holatini nazorat qiladi.

Ichki nazorat kapitalni investitsiyalashtirishning butun jarayonini kuzatib boradi. Ichki nazoratning ko'rinishlaridan biri bo'lgan va "post-audit" nomini olgan nazorat biznes-rejaning moliya bo'limidagi ishlab chiqarish-investitsiya faoliyatining har bir bosqichida rejlalastirilgan moliyaviy natijani haqiqiy holat bilan taqqoslash, ularni nomuvofiq kelishi sabablarini aniqlash va bartaraf etish, chiqimlarni kamaytirish va moliyaviy rejalashtirish metodlarini yaxshilash yo'llarini qidirishni anglatadi.

Auditorlik nazorati nodavlat moliyaviy nazoratining yangi turi bo'lib, u mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda ham paydo bo'ldi. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor tizimiga o'tilishi va turli tijorat tizimlarining paydo bo'lishi bilan ularning moliyaviy ishonchliligiga, shuningdek ular moliyaviy holatini ob'ektiv baholashga nisbatan talablar keskin oshirildi.

Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari buxgalterlik va moliyaviy hisobotning ishonchliligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini niqlash, tekshirilayotgan iqtisodiy sub'ektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirishdan iborat.

Korxonalarda auditorlik nazorati²⁰**Auditorlik nazorati**

Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari buxgalterlik va moliyaviy hisobotning ishonchligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini niqlash, tekshirilayotgan iqtisodiy sub'ektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirishdan iborat



Auditorlik xizmatlari quyidagi boshqa xizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin

- buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish va olib borish
- daromadlar haqida buxgalteriya hisobotini va deklaratsiyani tuzish
- moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va bashoratlash
- moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va bashoratlash
- buxgalteriya xizmati xodimlarini o'qitish va qonunchilik masalalarida maslahat berish
- auditorlik tekshiruvlari natijasida olingan tavsiyalarni ishlab chiqish va boshqalar

²⁰ Vahobov A. V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: 2007. – 322 bet.

Auditorlik xizmatlari quyidagi boshqa xizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin:

- buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish va olib borish;
- daromadlar haqida buxgalteriya hisobotini va deklaratsiyani tuzish;
- moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va bashoratlash;
- buxgalteriya xizmati xodimlarini o'qitish va qonunchilik masalalarida maslahat berish;
- auditorlik tekshiruvlari natijasida olingan tavsiyalarni ishlab chiqish;
- va boshqalar.

Auditorlik tekshiruvi majburiy va tashabbusli bo'lishi mumkin. Agar tashabbusli tekshiruv iqtisodiy sub'ektning o'z qarori bo'yicha amalga oshiriladigan bo'lsa, majburiy audit uning xohish-irodasi va istagiga bog'liq bo'lmagan va qonunchilikda belgilangan hollarda majburiy tartibda o'tkaziladi. Har yili majburiy auditorlik tekshiruvi:

- aktsiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshqa kredit tashkilotlari; sug'urta tashkilotlari; investitsion va boshqa jamg'armalar, yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'lari, ularning boshqaruvchi kompaniyalari;
- yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy ajratma mablag'lari ularning asosiy manbalari bo'lgan xayriya va boshqa ijtimoiy jamg'armalar;
- hosil bo'lish manbalari qonunchilikda nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan majburiy ajratmalardan iborat bo'lgan nobyudjet fondlar, ustav jamg'armasida davlatga tegishli ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda o'tkazilishi shart.

Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi sifatida xo'jalik yurituvchi sub'ekt ishtirok etadi. Auditorlik tashkilotini tanlash mulk egasi, xo'jalik yurituvchi sub'ekt qatnashchilari (aktsiyadorlari) umumiy majlisi bilan kelishiladi. Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bosh tortish xo'jalik yurituvchi sub'ektdan eng kam ish haqining ellik barobari miqdoridagi jarima

undirib olinishi hamda uning rahbarining qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi. Jarima to'lash xo'jalik yurituvchi sub'ektni majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan ozod etmaydi.

Auditning asosiy tamoyili uning mustaqilligi bo'lib, bunda asosan tekshirilayotgan sub'ektning moliyaviy hisoboti to'g'risidagi kasbiy fikrini ifodalashda biror tomonning ta'siri ostida bo'lishdan uning ozod ekanligini tushunish lozim. Shu bilan birga, yana shuni hisobga olish kerakki, audit barcha mamlakatlarda etarli darajada qattiq tartibga solinadi.

Ayrim davlatlarda (masalan, Frantsiyada) bu jarayonga davlat aralashib, u audit me'yori va normativlarini belgilaydi, auditorlarni va auditorlik firmalarini ro'yxatdan o'tkazadi hamda ularning faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi. O'zbekistonda ham xuddi shunday ahvol tarkib topgan bo'lib, bu erda davlat auditorlik faoliyatini tartibga solishni faol amalga oshiradi. U moliyaviy qiyinchiliklari iqtisodiyotga ta'sir etishi mumkin bo'lgan muhim korxonalarni ajratib, ularda audit o'tkazish majburiy ekanligini belgilaydi, auditorlarga (ma'lumoti, malakasi, imtihonlarni topshirish tartibi, mas'uliyati, javobgarligi va boshqalar bo'yicha) talablar qo'yadi.

Auditni davlat tomonidan tartibga solishni tashkil etish qonunchilik va boshqa normativ hujjatlar vositasida amalga oshiriladi. Bunda auditorlar jamoatchilik tashkilotlari tomonidan auditning o'zini o'zi boshqarishiga katta imkoniyat beriladi. Qayd etish lozimki, har bir mamlakatda jamoat tashkilotlarining rivojlanishi va ta'siri turlicha amalga oshiriladi. Masalan, AQSh va Angliyada auditorlik faoliyati asosan ixtisoslashtirilgan professional jamoat auditorlik tashkilotlari tomonidan tartibga solinadi.

Ko'pgina mamlakatlarda mustaqil Auditorlar palatalari ishlab turibdi. Ularning asosiy vazifalari auditorlik faoliyati va auditorlar axloq me'yorlari bo'yicha standartlarni ishlab chiqish, auditorlar ish-faoliyatining sifatini nazorat qilish, auditorlik faoliyati bo'yicha bilimlarini attestatsiya qilish va hujjatlar berish hamda auditorlik me'yorlarini buzgan shaxslarga nisbatan intizomiy jazo

choralarini qo'llash (bu - davlatga xos xususiyat bo'lmagan mamlakatlarda) kabilardan iboratdir.

Ammo ayrim mamlakatlarda, masalan, Shvetsiyada, garchi Vakolatli auditorlar uyushmasi va Tasdiqlangan auditorlar uyushmasi ishlab turgan bo'lishiga qaramasdan, umuman auditorlik faoliyatini tartibga solish davlat tomonidan amalga oshirilib, bu bizning Respublikamizga ham xos bo'lgan xususiyatdir. O'zbekiston Auditorlar palatasi tuzilish jihatidan davlat organlari bilan o'zaro birgalikda harakat qiladi. Ammo uning auditorlik faoliyatini tartibga solish bo'yicha asosiy funktsiyalari davlat tomonidan mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunini amalga oshirish, auditorlik tekshiruvlarining roli va maqomini belgilash, soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan auditorlik xulosalari hisobini yuritishni ta'minlash maqsadida so'nggi vaqtlarda bizning mamlakatimizda auditorlik faoliyatini amalga oshirish tartibiga jiddiy o'zgartirishlar kiritildi²¹.

Xususan, belgilab qo'yildiki, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish ishlari auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan mikrofirmalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan majburiy tarzda tegishli auditorlik tashkilotlari jalb etilgan holda tekshiriladi. Bunda moliyaviy hisobotning to'g'riligi uchun auditorlik tashkiloti javobgar hisoblanadi.

Tartiblar to'g'risida bir necha nizomlar tasdiqlangan:

- a) soliq va boshqa nazorat organlarining auditorlik xulosalari hisobini yuritish;
- b) majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishdan bosh tortganligi uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan jarima undirib olish;
- v) auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziyalar berish.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlari rolini oshirish to'g'risida» 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-sonli qarori.

Soliq organlari va boshqa nazorat organlarining auditorlik xulosalari hisobini yuritish to'g'risidagi nizom bunday xulosalarning ikki turini belgilab bergan bo'lib, ulardan har biri muayyan huquqiy oqibatlarga olib keladi:

- ijobiy auditorlik xulosasi auditorlik tashkiloti to'g'risida xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini to'g'ri aks ettiradi va xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq keladi, degan fikrlar mavjud bo'lgan hujjatdir.

- salbiy auditorlik xulosasi xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotida tartibbuzarliklar mavjud bo'lib, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchini yanglishishga olib kelishi mumkin bo'lganligi to'g'risidagi fikr bildirilgan auditorlik tashkiloti hujjatidir.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektda oldingi ikki yil uchun ijobiy yillik auditorlik xulosasi mavjud bo'lishi uni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ro'yxatiga kiritish uchun zarur shartlardan biri hisoblanib, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan tekshirish so'nggi tekshiruv o'tkazilganidan keyin 24 oy o'tmasidan oldin o'tkazilishi mumkin emas. Salbiy auditorlik xulosasiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning nazorat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan tekshiruv reja-jadvaliga kiritilishi kerak.

Soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan tekshiruv auditorlik xulosasi xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga muvofiq kelmasligini aniqlagan holda, ushbu auditorlik xulosasi shak-shubhasiz soxta deb hisoblanadi va auditorlik tashkiloti, shuningdek bunda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi. Bunda soliq va boshqa nazorat organlari o'n kunlik muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli auditorlik tashkiloti tomonidan amaldagi qonunchilik me'yorlari buzilganligi aniqlanganligi to'g'risida xabar berishi shart.

Auditorlik tashkiloti, shuningdek shak-shubhasiz soxta auditorlik xulosalarini tuzishda aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish xo'jalik yurituvchi sub'ektni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha belgilangan tartibni buzganligi uchun qonunchilikda nazarda tutilgan jazo choralaridan ozod qilmaydi.

Majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishdan bosh tortganligi uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan jarima undirib olish tartibi to'g'risida nizom qonunchilikka muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan amal qiladi.

Jarima solish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektning majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishdan bosh tortishi asos bo'ladi. Bunda yillik moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayiga qadar o'tkazilishi hamda auditorlik xulosasining yo'qligi qoidabuzarlik fakti deb topiladi.

Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'zining yillik moliyaviy yil uchun auditorlik tekshiruvini hisobot yilining 1 mayiga qadar o'tkazadi va auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 15 kunlik muddat ichida tegishli soliq organiga auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasini taqdim etadi.

Auditorlik xulosasining nusxasi belgilangan muddatda soliq organiga topshirilmagan holda, xo'jalik yurituvchi sub'ekt ushbu organga yozma ravishda auditorlik xulosasi yo'qligi sababini aks ettiruvchi tushuntirishni taqdim etishi shart.

Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bosh tortilganligi sababli auditorlik xulosasi yo'q bo'lgan taqdirda, soliq organi xo'jalik yurituvchi sub'ektga belgilangan tartibda jarima soladi.

Boshqa nazorat organi tomonidan majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektga nisbatan soliq organi tomonidan jarima solish chorasi qo'llanilmaganligi aniqlangan taqdirda, tegishli soliq

organining mansabdor shaxslari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

Auditorlik faoliyati (auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlaridan tashqari) yangi qonunchilik bo'yicha auditorlik teshiruvini o'tkazish uchun faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash auditorlik tashkilotlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalar berish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq ravishda olib boriladi.

Auditorlik faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (litsenziyalovchi organ) tomonidan amalga oshiriladi.

III bob bo'yicha xulosalar

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida korxonalar moliyasini nazorat qilish usullarini takomillashtirish yo'llari yuzasidan quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarida hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va tijorat banklari tomonidan to'lov intizomini mustahkamlash va hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish, soliqlar va majburiy to'lovlarni to'liq to'lash bo'yicha amaldagi qonunchilik me'yorlariga qat'iy rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- korxonalarning debitorlik qarzlari ahvolini tahlil etish, muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning byudjetga to'lovlar bo'yicha boqimandalarini qisqartirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda tegishli soliqlar va majburiy to'lovlarning to'liq undirib olinishini ta'minlash;

- korxonalar va tashkilotlar aylanma mablag'larining ajratib olinishi, shu jumladan tayyor mahsulot zahiralariga va tugallanmagan qurilishga ajratilishi

sabablari va yo'nalishlarini aniqlash hamda ularni qisqartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida korxonalar moliyasini nazorat qilish usullarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi. Buni bevosita buni ishni xulosa qismida ko'rish mumkin.

Xulosa

Bugungi kunda har bir korxona va muassasa uchun Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida korxonalar moliyasini nazorat qilish usullarini takomillashtirib borish masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo'la oladi. Sababi hozirgi iqtisodiy shart-sharoitda, jumladan, raqobatchilik muhiti rivojlanib borayotgan bir paytda moliyaviy nazoratning uyg'unlashtirilishi hisobiga har bir xo'jalik sub'ektining ko'zlangan maqsad va yutuqlariga, xususan, yuqori foyda, yuqori rentabellik, uzoq muddatli hayotiylikka va shu kabilarga erishish mumkin.

Mazkur masalaga bag'ishlangan mavzuni o'rganish va yoritish natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik:

1. Moliyaviy nazorat har bir korxona va muassasa faoliyatining moliyaviy ishochligini aniqlash va mustahkamlashning muhim qurolidir.

2. Moliyaviy nazorat har bir korxona va muassasaning joriy xo'jalik faoliyati holati, natijasi va samaradorligini aniqlashga imkon beradi va istiqbol uchun aniq va ishonchli rejalar ishlab chiqish zaminini yaratadi.

3. Moliyaviy menejment korxona va muassasaning joriy va kelgusi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini moliyalashtirish, investitsiyalash masalalarini o'rganish va hal qilish bilan birga ularni ko'zlangan maqsad va natijalarga etaklashda hal qiluvchi o'rinni egallaydi.

4. Moliyaviy nazorat va moliyaviy menejment bir vujudning ikki jismi kabidir. Ularning yaxlitligi, uyg'unligini ta'minlash faqatgina foydalidir. Barcha taxmin, reja, istiqbol, imkoniyat va shart-sharoitlarni mazkur uyg'unlikdagi faoliyat samarasida aniq tasavvur qilish, aniqlash va belgilash mumkin.

Lekin amaliyotda moliyaviy nazorat va moliyaviy menejmentni uyg'unlashtirishdagi holatni o'rganib, qoniqarli deb bo'lmaslik sababidan, bu sohadagi bir qator quyidagi muammolar ko'rsatib o'tildi:

1. Aksariyat korxona va muassasalarda ichki moliyaviy nazorat tashkil etilmagan yoki amalda to'la mazmunda ishlamayotir.

2. Moliyaviy nazorat, ko'proq, tashqi auditorlik tekshiruvi ko'rinishidagina namoyon bo'lmoqda. Vaholanki, har bir Aksariyat va muassasalarda muttasil moliyaviy nazorat olib borilmayotir.

3. Moliyaviy menejment bo'yicha puxta bilim va amaliy tajribaga ega mutaxassislarni etarli darajada, deb bo'lmaydi. shuning uchun ham korxona va muassasalarda moliyalashtirish va investitsiyalashga doir qarorlar qabul qilishda muayyan muammolarga duch kelinmoqda.

4. Aksariyat korxona va muassasalarda moliyaviy nazorat, tahlil bilan shug'ullanuvchi kuchli mutaxassislarning mavjud bo'lishiga e'tibor berilmaydi va buning natijasida, sayoz, yuzaki baholashga asoslangan xulosa va fikrlar shakllantiriladi.

5. Moliyaviy nazorat va moliyaviy menejmentni yaxlit, uyg'un holda olib borish zaruriyatini aksariyat korxona va muassasa rahbarlari tushuntirib va asoslab bera olmaydilar. Shuning uchun ham mazkur masalaga jiddiy yondashuvlari hali-hamon muammo bo'lib kelmoqda.

6. Barcha korxona va muassasalarda moliyaviy menejment va moliyaviy nazoratni uyg'un holda olib borish masalasiga davlat tomonidan ham e'tiborning qoniqarli darajada emasligi amalda kuzatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008 y. -40 B.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2008 y. -692 B
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni, 2000 yil 14 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-343-sonli Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257 sonli Qarori.

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari

8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. —Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2000 - B. 352.
9. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2005.-B. 528.

10. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokrat-lashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -Toshkent.: “O’zbekiston” NMIU, 2005. - B. 96.
11. Karimov I.A. O’zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo’li. - Toshkent.: “O’zbekiston” NMIU, 2007. -B. 48.
12. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlash-barcha islohot va o’zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2008. - B. 64.
13. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch. -T.: «Ma’naviyat», 2008. -B. 176.
14. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi // Halq so’zi, 2009 yil 14 fevral.
15. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari / - T.: “O’zbekiston” NMIU, 2009. -B. 56.
16. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: “O’zbekiston” NMIU, 2010. -80 b.
17. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirish yakunlari va 2011 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi.
18. Karimov I.A. “2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi” 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi.
19. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz-keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish” 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.

III. Darslik va o'quv adabiyotlari:

20. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. -526 b.
21. Vahobov A., Jumaev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. –T.: Sharq, 2003. -400 b.
22. Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish-ning samarali yo'llari. / Monografiya. “Fan” nashriyoti. 2004 y.
23. Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2008. -210 b.
24. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. -544 b.
25. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. -204 b.
26. Налоги и налогообложение. Учебник для вузов /Под ред. Д.Г.Черника. М: Юнита-Дана, 2010. -345 с.
27. Финансы. /Под ред. Л.А. Дробозиной –М.: ЮНИТИ, 2010. -350 с.
28. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma, –T.: “Norma”, 2009. –184 b.
29. Jo'raev A. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: “O'qituvchi” nashriyoti, 2007. –232 b.
30. Toshmurodova B., Elmirzaev S. Korporativ soliq menedjmenti. O'quv qo'llanma. –T.: “MUMTOZ SO'Z”, 2010
31. Мандрошченко О., Пинская М. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Дашков и К”, 2010
32. Черник Д. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: “Юнити-Дана”, 2010
33. Жидкова Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.:

“Эксмо”, 2010

34. Худолев В. Налоги и налогообложение. Учебник. – М.: “Форум”. 2009
35. Malikov T.S. Soliq yukining og'irligini keskin kamaytirish kerakmi? Risola. -T.: 2006. —B. 32.
36. Mamanazarov A.B. Soliq siyosati. -T.: «Moliya», 2003. -B. 148.
37. To'raev Sh.Sh. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. -T.: “Akademiya”, 2005. - B. 130
38. O'rmonov J.J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi: O'quv qo'llanma - T.: Soliq akademiyasi, «Dizayin-Print», 2007. -B. 202.
39. Qurbonov Z.N. Soliq auditi.-T.: «Fan va texnologiyalar», 2007.-B. 120.
40. 2,42, Abduraxmonov O., Kushakaev B. Soliq islohotlari: izchillik va tadrijiylik. -T.: “Akademiya”. 2005. 123-bet

IV. Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

41. Boymurodov S. Soliq imtiyozlari va ularning soliq to'lovchilar moliyaviy faoliyatiga ta'siri. //Soliq solish va buxgalteriya hisobi. 2007 yil, №8
42. Jo'raev A. Daromad, byudjet va soliqlar.//Soliq to'lovchining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.
43. O'rmonov J. Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yo'llari. //Soliq siyosatini yanada takomillashtirish-prinsipial muxim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi tezislar to'plami. -Toshkent, 2005. -B. 156-157.
44. O'rmonov J., Yu.Xodjaev. Soliq tizimini takomillashtirish-dagi ayrim masalalar. //O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini shakllantirish sharoitida byudjet-soliq siyosatining dolzarb masalalari. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi materiallari to'plami. - Toshkent, 2007.-B. 81-82.
45. O'rmonov J. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik kayta jixozlashni soliqlar vositasida rag'batlantirish. //Soliq siyosatini yanada erkinlashtirish - eng

muhim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi materiallari to'plami. - Toshkent, 2007. - B. 20-21.

46. O'rmonov J. Soliq siyosati islohotlari taraqqiyot omili. //Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq tizimini takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislar to'plami. - Toshkent, 2008. - B. 29-30.

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

47. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2007 yil. -T.:20084.-№5.
48. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2008 yil. -T.:2009.-№10.
49. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2009 yil. -T.:2010.-№12.
50. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2011.-№9.
51. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№6.
52. O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2008 - 2012.

VI.Internet saytlari

53. <http://www.press-service.uz>-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti axborot markazi sayti
54. <http://www.soliq.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti
55. <http://www.mf.uz>-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
56. <http://www.nalog.ru>-Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti
57. <http://www.stat.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
58. <http://www.lex.uz>-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.
59. <http://www.tfi.uz>-Toshkent moliya instituti sayti.